2025-YIL – ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 236 (1297), 2024-yil 21-noyabr, payshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

YANGI O‘ZBEKISTONIMIZ YANGI PARLAMENTI BILAN BIRGA O‘Z TARAQQIYOTINING HAL QILUVCHI BOSQICHIGA QADAM QO‘YMOQDA

Ayni kunlarda mamlakatimizda muhim siyosiy jarayonlar kechmoqda. Yaqinda bo‘lib o‘tgan saylovlar natijasi bo‘yicha yangi parlament shakllandi. 20-noyabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan majlisi o‘tkazildi.





Yig‘ilishni Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilov olib bordi.

O‘zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi ijro etildi.

Yangilangan Konstitutsiyamizning 94-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko‘rib chiqish va ma’qullash Oliy Majlis Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlariga kiradi. 118-moddaga ko‘ra, Bosh vazir nomzodi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan taqdim etiladi.

Shu munosabat bilan majlisda Prezident Shavkat Mirziyoyev nutq so‘zladi.

— Mamlakatimiz o‘z oldiga qo‘ygan strategik va joriy vazifalarni amalga oshirishda, barcha bo‘g‘indagi ijro organlari, avvalo, hukumat va uning rahbari zimmasidagi mas’uliyat hozirgi murakkab zamonda har qachongidan ham ortib bormoqda. Xalqimiz bugun yangi hukumatdan aniq natijalarni kutmoqda, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Davlatimiz rahbari, avvalo, o‘tgan besh yildagi dasturlar ijrosiga to‘xtalib o‘tdi. Bu davrda mamlakatimiz iqtisodiyoti 2 karra o‘sib, 100 milliard dollarlik tarixiy marradan oshdi. Aholi jon boshiga daromad 3 ming dollarga yetishi kutilmoqda.

Eksport qariyb 2 barobar o‘sib, ilk bor 25 milliard dollardan, oltin-valyuta zaxiralari esa 40 milliard dollardan oshdi. O‘zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar hajmi 6 karra ko‘payib, buning hisobiga 1,5 millionta yuqori daromadli ish o‘rinlari yaratildi.

So‘nggi uch yilda umumiy quvvati 2,4 gigavatt bo‘lgan 9 ta yirik quyosh va shamol stansiyalari ishga tushirildi. Muqobil energiya ulushi o‘tgan yilga nisbatan 2 barobar ko‘paydi.

Maktabgacha ta’limda qamrov 74 foizdan, oliy ta’limda esa 39 foizdan oshdi. Barcha hududlarda “Inson markazlari” ochilib, ijtimoiy xodimlar tomonidan bevosita mahallalarda aholiga 100 dan ortiq ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti hajmini 160 milliard dollarga yetkazish maqsad qilib qo‘yilgan edi. Barcha imkoniyatlar ishga solingani tufayli bu ko‘rsatkich joriy yilning o‘zida 110 milliard dollarga yetishi kutilmoqda.

Shunday sur’at jadal davom ettirilsa, 2030-yilga borib, mamlakatimiz iqtisodiyoti hajmini 200 milliard dollarga yetkazish salohiyati borligi ta’kidlandi. Bu aholining turmush darajasi va sifatini keskin yaxshilashga asos bo‘ladi.

Xususan, aholi jon boshiga daromadlarni 5 ming dollardan oshirish, kambag‘allik darajasini 5 foizga tushirib, ehtiyojmand aholi uchun mustahkam ijtimoiy sug‘urta tizimini joriy etish, tibbiyotga ajratilayotgan mablag‘larni 2 barobar ko‘paytirib, tibbiy sug‘urta tizimiga o‘tish va kafolatlangan tibbiy xizmatlar bilan to‘liq qamrovni ta’minlash, yiliga 150 ming kvartirali yangi zamonaviy uy-joylarni barpo etish imkoniyati yaratiladi.

Davomi 3-betda

PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEVNING OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASINING O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOSH VAZIRI NOMZODINI KO‘RIB CHIQISHGA BAG‘ISHLANGAN MAJLISIDAGI NUTQI

Assalomu alaykum, hurmatli deputatlar!

Qadrli majlis ishtirokchilari!

Bugun yangilangan Konstitutsiyamizga muvofiq, ilk bor quyi palatada Bosh vazir lavozimiga nomzod va Hukumatning kelgusi 5 yilga mo‘ljallangan Harakatlar dasturini ko‘rib chiqib, tegishli qaror qabul qilishimiz zarur.

Bu masalaning naqadar muhimligi, o‘ylaymanki, hammamizga yaxshi ayon. Nega deganda, mamlakatimiz o‘z oldiga qo‘ygan strategik va joriy vazifalarni amalga oshirishda, barcha bo‘g‘indagi ijro organlari, avvalo, Hukumat va uning rahbari zimmasidagi mas’uliyat hozirgi murakkab zamonda har qachongidan ham ortib bormoqda.

Shu bilan birga, bugun mutlaqo yangi vakolat va vazifalarga ega bo‘lgan Hukumat shakllanmoqda. Bu fikrni Konstitutsiya darajasida birinchi marta kambag‘allikni qisqartirish, oziq-ovqat xavfsizligi, investitsiya, ekologiya kabi muhim yo‘nalishlarda Vazirlar Mahkamasining majburiyatlari belgilab qo‘yilgani ham tasdiqlaydi.

Xalqimiz bugun ana shunday hal qiluvchi masalalar bo‘yicha yangi Hukumatdan aniq natijalarni kutmoqda.

Asosiy masalaga o‘tishdan oldin o‘tgan 5 yilda har tomonlama puxta o‘ylab qabul qilingan dasturlar ijrosi qanday ta’minlangani haqida to‘xtalib o‘tmoqchiman.

Avvalo, iqtisodiyotimiz 2 karra o‘sib, 100 milliard dollarlik tarixiy marradan oshdi. Aholi jon boshiga daromad 2018-yildagi 1 ming 600 dollardan 3 ming dollarga yetishi kutilmoqda. Jahon banki 2024-yilda O‘zbekiston Yevropa va Markaziy Osiyoda iqtisodiyoti eng tez o‘sayotgan 3 ta davlat qatoridan joy olganini e’tirof etdi. Kambag‘allik darajasi so‘nggi 4 yilda 23 foizdan 11 foizga tushdi. Bu yil yana 106 ming oila kambag‘allikdan chiqarilib, 9 foizga tushishi kutilmoqda.

Eksport qariyb 2 barobar o‘sib, ilk bor 25 milliard dollardan, oltin-valyuta zaxiralarimiz esa 40 milliard dollardan oshdi. O‘zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar hajmi 6 karra ko‘payib, buning hisobiga 1,5 million yuqori daromadli ish o‘rinlari yaratildi. Yalpi ichki mahsulotda investitsiyalar ulushi 30 foiz darajasida ta’minlangani iqtisodiyotimiz rivoji uchun kelgusi yillarda ham mustahkam zamin yaratmoqda.

Ilgari to‘liq davlat tasarrufida bo‘lgan sohalar, ya’ni, energetika, kimyo, aviatsiya, geologiya, metallurgiya, mashinasozlik, ta’lim va tibbiyotda xususiy sektor va davlat-xususiy sheriklik munosabatlariga keng yo‘l ochganimiz ularning rivojida kuchli omil bo‘ldi.

Ayniqsa, energetika sohasida tom ma’noda tarixiy ishlar amalga oshirilmoqda. Ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi hajmi 1,5 karra o‘sib, 80 milliard kilovatt-soatga yetgani ham buni yaqqol ko‘rsatib turibdi. So‘nggi uch yilda umumiy quvvati 2,4 gigavatt bo‘lgan 9 ta yirik quyosh va shamol stansiyalari ishga tushirildi. Muqobil energiya ulushi o‘tgan yilga nisbatan 2 barobar ko‘paydi.

Yana bir muhim o‘zgarishga e’tiboringizni qaratmoqchiman. O‘tgan davrda 25 mingdan ziyod xususiy bog‘cha, 70 ga yaqin nodavlat oliygohi tashkil etilib, qamrov maktabgacha ta’limda — 74 foizdan, oliy ta’limda esa — 39 foizdan oshdi.

Ijtimoiy xizmatlar tizimida ham katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Barcha hududlarda “Inson” markazlari ochilib, ijtimoiy xodimlar tomonidan bevosita mahallalarda aholiga 100 dan ortiq ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi.

Davomi 2-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

A.N. ARIPOVNI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BOSH VAZIRI LAVOZIMIGA TAYINLASH TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 94-moddasiga binoan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdimiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2024-yil 20-noyabrdagi qarori bilan Bosh vazir lavozimiga A.N.Aripov ma’qullangan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasiga muvofiq, **Abdulla Nigmatovich Aripov** O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri etib tayinlansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti **SH. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2024-yil 20-noyabr

SAMARQANDDA INVESTITSIYA VA TADBIRKORLIK MUHITI YANADA YAXSHILANADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 20-noyabr kuni Samarqand viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmushi farovonligini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.

Samarqand mamlakatimiz markazida joylashgan, savdo, sanoat, turizm, transport va agrar tarmoqlar yaxshi rivojlangan hudud. Davlatimiz rahbarining 2023-yil avgustdagi tashrifi chog‘ida belgilangan vazifalar birin-ketin bajarilmoqda.

Endi yangi-yangi marralar olish zarur. Shu maqsadda aholi va tadbirkorlar bilan uchrashuvlar o‘tkazilib, 4,1 milliard dollarlik 120 ta loyihani amalga oshirish imkoniyati aniqlangan.

Davomi 3-betda



Biz mo‘tabar ona zotini qanday yuksak hurmat-ehtirom qilsak, o‘zimizni qurshab turgan tabiatga ham shunday munosabatda bo‘lishimiz zarur.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 21-noyabr, 236-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEVNING OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASINING O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOSH VAZIRI NOMZODINI KO‘RIB CHIQISHGA BAG‘ISHLANGAN MAJLISIDAGI NUTQI

Boshlanishi 1-betda

Parijda bo‘lib o‘tgan Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlarida azmu shijoatli sportchilarimiz chinakam rekord natijalarni qayd etib, jami 39 ta medal, jumladan, 18 ta oltin medalni qo‘lga kiritdilar. O‘zbekiston tarixida ilgari hech qachon bo‘lmagan bunday yutuqlar barchamizga yangi kuch-g‘ayrat baxsh etishi tabiiydir.

Hurmatli yig‘ilish qatnashchilari!

Jahon miqyosida hukm surayotgan bugungi o‘ta keskin va og‘ir sharoitda yurtimizda tinchlik va hamjihatlikni saqlab, iqtisodiyotimizda barqaror o‘sishni ta’minlab, mana shunday marralarga erishish oson bo‘lmaganini barchamiz yaxshi tushunamiz.

Mana, o‘zingiz ko‘ryapsiz, aholimiz 37 milliondan oshdi. Kelgusi 5 yilda esa, Xudo xohlasa, 40 milliondan ortishi kutilmoqda. Bunday demografik o‘sish, albatta, katta imkoniyat, lekin, shu bilan birga, bu holat oldimizga yangi-yangi, o‘tkir vazifalarni qo‘yishi ham shubhasiz.

Ayniqsa, kambag‘allikni qisqartirish, ekologiya, energetika, transport, yo‘l, ichimlik suvi ta’minoti, aholini uy-joy bilan ta’minlash kabi muhim sohalarda xalqimizning talab va ehtiyojlari tobora o‘sib bormoqda.

Ana shunday dolzarb muammolarga samarali yechimlar topib, yangicha faoliyat olib borish Hukumat uchun jiddiy sinov bo‘lishi tabiiy, albatta. Bugun Bosh vazir lavozimiga tavsiya etiladigan nomzod ana shu masalalarning barchasini hisobga olib, ularning ijrosini ta’minlash yuzasidan o‘z dasturini taqdim etadi.

Muhtaram do‘stlar!

Biz “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida kelgusi yillar uchun katta marralarni belgilab olganimizdan xabaringiz bor. Xususan, mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti hajmini 160 milliard dollarga yetkazishni maqsad qilib qo‘ygan edik.

Ochiq aytish kerak, dastlab bunga ayrim kishilar shubha yoki ikkilanish bilan qaragani ham bor gap. Lekin o‘z vaqtida zarur chora-tadbirlarni amalga oshirganimiz, barcha imkoniyatlarni ishga solganimiz tufayli bu yilning o‘zida yalpi ichki mahsulotimiz hajmi 110 milliard dollarga yetishi kutilmoqda.

Yangi Hukumat, barcha rahbarlar birgalikda qattiq ishlab, islohotlarimiz shiddatini pasaytirmasdan, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotimizdagi o‘zgarishlarni jadal davom ettirsak, 2030-yilga borib, iqtisodiyotimiz hajmini 200 milliard dollarga yetkaza olishimizga men albatta ishonaman.

To‘g‘ri, bu kichkina raqam emas. Lekin erishsa bo‘ladigan marra. Bu natijani ta’minlash orqali aholining turmush darajasi va sifatini keskin yaxshilashga erishamiz. Xususan, aholi jon boshiga daromadlarni 5 ming dollardan oshirish, kambag‘allik darajasini 5 foizga tushirib, ehtiyojmand aholi uchun mustahkam ijtimoiy sug‘urta tizimini joriy etish, tibbiyotga ajratilayotgan mablag‘larni 2 barobar ko‘paytirib, tibbiy sug‘urta tizimiga o‘tish va kafolatlangan tibbiy xizmatlar bilan to‘liq qamrovni ta’minlash, yiliga 150 ming kvartirali yangi zamonaviy uy-joylarni barpo etish imkoniyati yaratiladi.

Yana bir bor aytaman, bunday natijalarga erishish uchun kuch va imkoniyatimiz ham, salohiyatimiz ham yetadi.

Bu borada eng muhim yo‘nalishlarga e’tiboringizni qaratmoqchiman.

Birinchidan, makroiqtisodiy muvozanatni saqlab, kelgusi besh yilda iqtisodiy o‘sish sur’atini 6-7 foiz atrofida ta’minlashimiz zarur.

Bunda inflyatsiya darajasi 5-6 foiz, budjet taqchilligi 3 foiz doirasida bo‘lishiga erishish, yillik kreditlash hajmini 30 milliard dollarga olib chiqish asosiy vazifa bo‘ladi.

Ushbu davrda Hukumat kamida 100 milliard dollarlik xorijiy investitsiyalarni o‘zlashtirishga hamda yillik eksport hajmini 2 barobar oshirib, 45 milliard dollarga olib chiqish, unda tayyor mahsulotlar ulushini 50 foizga yetkazishga erishishi lozim.

Xorijiy turistlar oqimini 5 yilda 15 million nafarga, turizm xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga olib chiqish uchun barcha imkoniyatlar borligini ta’kidlash zarur.

Shu bilan birga, norasmiy iqtisodiyotni “soyadan chiqarish”da raqamli texnologiyalarni tayanch vositaga aylantirish lozim. Xususan, kelgusi yilda naqd pulsiz hisob-kitoblarni yanada rag‘batlantirib, onlayn to‘lovlar ulushini 60 foizga yetkazish Hukumat va Markaziy bankning muhim vazifasi bo‘ladi.

Biz Jahon savdo tashkiloti bilan hamkorlik doirasida asosiy chora-tadbirlarni amalga oshirdik va yaqin yillarda ushbu tashkilotga albatta a’zo bo‘lib kirishimiz kerak.

Ikkinchidan, joriy yilda Sayxunobod, Uychi, Zarbdor, G‘ijduvon tumanlarida amalga oshirilgan ishlarning ijobiy natijalari asosida “Kambag‘allikdan farovonlik sari” kompleks dasturini qabul qildik.

Endi ko‘p qirrali yondashuvlar asosida kambag‘al oilalarning a’zolariga sifatli ta’lim berish, ularni kasbga o‘qitish, ish bilan ta’minlash, sog‘lig‘ini yaxshilash, psixologik yordam ko‘rsatish bo‘yicha ko‘mak berish paketlari individual bo‘ladi.

Ishni mahallabay tashkil qilib, 2025-yilda 1 million aholini kambag‘allikdan chiqarish Vazirlar Mahkamasi iqtisodiy kompleksining asosiy vazifasi etib belgilanadi.

Shu maqsadda kambag‘al oilalarga mansub bolalar maktablarda chet tili, kasb-hunar va IT bo‘yicha bepul bilim olishi uchun 500 milliard so‘m ajratiladi. Ijtimoiy ahvoli og‘ir mingta mahallada infratuzilmani yaxshilash dasturi amalga oshiriladi. Bunga 2 trillion so‘m yo‘naltiriladi. Kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishga jami 46,5 trillion so‘m mablag‘ sarflanadi.

Hukumat 2030-yilgacha ishsizlikni xalqaro e’tirof etilgan daraja — 5-6 foizdan oshirmaslik bo‘yicha dolzarb vazifalarni ham samarali hal etishi lozim.

Uchinchidan, iqtisodiyot va aholi daromadlarini o‘stirishda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan sanoat tarmoqlariga alohida ahamiyat qaratish kerak.

Vazirlar Mahkamasining investitsiya kompleksi kelgusi yilda iqtisodiyotimiz uchun muhim bo‘lgan 300 dan ziyod yirik loyihani ishga tushirishi va to‘liq quvvatlar bilan ishlashini ta’minlashi zarur. Jumladan, “Yoshlik I” konida birinchi bosqichga, “Muruntov” konida esa keyingi bosqichlarga start beriladi. Shuningdek, Samarqand viloyatida yiliga 910 ming tonna mineral o‘g‘itlar ishlab chiqaradigan kompleks, 600 ming tonna mahsulot beradigan metallurgiya korxonasi, Zarafshonda kaustik soda zavodi, Nukusda isitish tizimlari ishlab chiqarish quvvatlari foydalanishga topshiriladi.

Yurtimizda sanoat kooperatsiyasi va mahalliylashtirish imkoniyatlarini to‘liq ishga solish uchun barcha sharoitlar mavjud. Navoiyda mikro GESlarni barpo etish bo‘yicha barcha bosqichlar o‘z resurslarimiz asosida tashkil qilingani bunga yorqin misol bo‘la oladi.

Shuning uchun sanoat kooperatsiyasi va mahalliylashtirish bo‘yicha katta dastur qabul qilamiz. Yangi tarkibdagi Hukumat yaqin besh yilda chuqur qayta ishlangan sanoat mahsulotlari ulushini 32 foizga yetkazishni asosiy vazifa sifatida belgilab olishi zarur.

Yana bir muhim masala — iqtisodiyotni energiya resurslari bilan ishonchli ta’minlash va energiya samaradorligini 2 karra oshirishga alohida e’tibor qaratish kerak. Kelgusi yili mamlakatimizda 90 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarib, aholi va iqtisodiyot talablarini to‘liq ta’minlash lozim. Bunda qayta tiklanuvchi energiya quvvatlari 25 gigavattga, ularning jami iste’moldagi ulushi 40 foizga yetkaziladi.

To‘rtinchidan, kelgusi besh yilda iqtisodiyotda xususiy sektorning ulushini 85 foizga yetkazish ham asosiy vazifalardan biridir.

Bu borada 2 mingta korxonada davlat ulushini, 5 mingdan ziyod ko‘chmas mulk obyektini sotish, 16 ta yirik majmua aksiyalarini IPO ga chiqarish talab etiladi. Hukumat 30 milliard dollarlik davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishni ta’minlashi kerak.

Vazirlar Mahkamasi 2025-yilda “tejamkorlik va barqarorlik” tamoyili asosida davlat kompaniyalarini transformatsiya qilishni tezlashtirib, ularning xarajatlarini 15-20 foizga qisqartirishi zarur. Bu borada 1 milliard dollarlik 18 ta davlat kompaniyasining ulushi berilgan Milliy investitsiya jamg‘armasi faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish lozim.

Beshinchidan, aholimiz soni ko‘payib borayotgan hozirgi sharoitda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash eng dolzarb vazifa bo‘lib qoladi.

Bu borada qishloq xo‘jaligining barcha tarmoqlari, avvalo, meva-sabzavotchilikni intensiv rivojlantirish, yangi urug‘ navlarini yaratib, importni 50 foizga qisqartirish bo‘yicha dasturlarimiz bor.

Hukumat bu dasturlar ijrosini ta’minlab, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni 1,3 barobar oshirish, har gektar yerdan olinadigan o‘rtacha daromadni 5 ming dollarga yetkazish, sohada eksport hajmi 10 milliard dollardan iborat bo‘lishi, suv tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yer maydonlarini 2 karra oshirish bo‘yicha ishlarni samarali tashkil etishi zarur.

Yangi yilda suv tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish uchun 5 trillion so‘m, kanallarni betonlash uchun 800 milliard so‘m yo‘naltiriladi.

Hurmatli majlis ishtirokchilari!

Sog‘liqni saqlash, ta’lim va sportni rivojlantirish bo‘yicha katta dasturlarni samarali va to‘liq amalga oshirish — hamisha Hukumatning kun tartibida turishi kerak bo‘lgan asosiy vazifalardir.

Birinchidan, o‘rtacha umr ko‘rish darajasini 78 yoshga yetkazish uchun birlamchi tibbiy xizmatlarning aholi uchun qulayligi va sifatini oshirish zarur. Xususan, 2025-yilda birlamchi bo‘g‘inda 3 million 700 ming nafar ayolni skrining tekshiruvidan o‘tkazish, bu jarayonni raqamlashtirish orqali saraton kasalligini erta aniqlash ko‘rsatkichini hozirgi 60 foizdan 85 foizga yetkazish mumkin.

Hukumat mahallalardagi 18 mingta tibbiyot brigadalarini o‘qitish, 884 ming nafar bemorni uy sharoitida reabilitatsiya bilan qamrab olish bo‘yicha yangi tizimni joriy etadi. Shu bilan birga, tug‘uruqxonalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga 100 million dollar yo‘naltiriladi.

Davlat tibbiy sug‘urtasi va aholiga kafolatlangan paket asosida tibbiy yordam ko‘rsatish tizimi kelgusi uch yilda barcha shahar, tuman va qishloqlarni qamrab olishi zarur. Shuningdek, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi, to‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish kabi masalalar bo‘yicha Hukumat alohida dasturlar ishlab chiqishi lozim.

Ikkinchidan, ta’lim sifatini yanada oshirish, yoshlarimizni har tomonlama yetuk insonlar etib tarbiyalashga qaratilgan siyosatimiz izchil davom ettiriladi.

Kelgusi yillarda bog‘chalarda qamrovni 80 foizga, oliygohlarda esa kamida 50 foizga yetkazish Hukumat uchun asosiy vazifa bo‘lib qoladi. Xalqaro moliya institutlarining 61 million dollar mablag‘lari hisobidan 2025-yilda 252 ta yangi bog‘cha barpo etiladi. Shuningdek, 174 ta bog‘cha va 379 ta maktab ta’mirlanadi va yangitdan quriladi. Bu maqsadlar uchun budjetdan 4 trillion so‘m ajratiladi.

Tadbirkorlarga maktab qurish uchun 20 milliard so‘mgacha imtiyozli kredit beriladi. Bunda kredit stavkasining 13,5 foizdan oshgan qismi byudjetdan qoplab beriladi.

Muhtaram deputatlar!

Yuqorida aytilgan dolzarb vazifalarni bajarishda yangi Hukumatning Qonunchilik palatasi bilan yanada samarali hamkorlik olib borishi muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, yangi tarkibdagi Vazirlar Mahkamasi oldida turgan ustuvor vazifalarga e’tiboringizni qaratmoqchiman.

Avvalambor, ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini odamlarga yanada yaqinlashtirish lozim.

Shu o‘rinda barcha rahbar kadrlar faoliyatining asosiy mezoni bo‘lgan bosh talabni yana bir bor eslatib o‘tmoqchiman. Ya’ni **xalq davlat idoralariga emas, aksincha, davlat tashkilotlari xalqqa, uning qonuniy manfaatlarini ta’minlashga xizmat qilishi zarur.**

Joriy yilda qonunlar ijrosini doimiy baholab borish bo‘yicha yangi tizimni yo‘lga qo‘yganimizdan ko‘zlangan maqsad ham shundan iborat. Qonun qabul qilindimi, u albatta ishlashi kerak va odamlar hayotida sezilarli o‘zgarish bo‘lishi lozim. Qonunlar ijrosi Oliy Majlis palatalarining tegishli qo‘mitasi va mas’ul ijro etuvchi organ bilan birgalikda o‘rganib borilishi kerak.

Yana bir muhim masala. Ijro etuvchi hokimiyat organlari qarorlar qabul qilishda qonuniylikni, ularning asoslangan bo‘lishini ta’minlashi lozim.

Keyingi vaqtda qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini jamoatchilik bilan maslahat qilishda qonunlarimizda belgilangan talablarga hamisha ham rioya etilmayapti. Adliya vazirligi bir oy muddatda bu masala bo‘yicha takliflarni Qonunchilik palatasining tegishli qo‘mitasi bilan birga muhokama qiladi va Hukumatga kiritadi.

Hukumatning qonunchilik tashabbusi bilan Qonunchilik palatasiga kiritilayotgan qonun loyihalari sifatini oshirish ham dolzarb masala bo‘lib turibdi.

Davrning o‘tkir talablariga javob beradigan, sifatli, amaliyotda samarali ishlaydigan qonunlarni qabul qilish Oliy Majlisning eng muhim vazifasi, kerak bo‘lsa, uning obro‘sidir. Bu borada taniqli xitoy faylasufi Shan Yanning **“Yaxshi qonun — xalqqa hurmat ifodasidir”**, degan so‘zlarini eslash o‘rinli, deb o‘ylayman.

E’tiboringizni **yana bir masalaga** qaratmoqchiman. Hukumat, vazirlik va idoralar, hududlar rahbarlari deputatlar tomonidan joylarda aniqlangan muammolarni hal etishda quyi palata qo‘mitalari bilan tizimli hamkorlikni yo‘lga qo‘yishlari lozim. Lekin hozirgi vaqtda turli sohalarda nazoratni ta’minlovchi davlat inspeksiyalarining Qonunchilik palatasi qo‘mitalari bilan hamkorlik tizimi yo‘lga qo‘yilmagan.

Shu bois, ularning hisobotlarini qo‘mitalarda muhokama qilib borish bo‘yicha yangi, ta’sirchan tizimni joriy etsak, o‘ylaymanki, parlament nazorati samaradorligi yanada oshadi.

Qolaversa, bu ish samarali bo‘lishi uchun vazirlik va idoralarda rahbar o‘rinbosarlarini quyi palata qo‘mitalari bilan doimiy hamkorlik uchun mas’ul etib biriktirsak, nima deysizlar?

Albatta, bu birinchi rahbarlar zimmasidan mas’uliyatni soqit qilmaydi, palatalar bilan hamkorlik uchun so‘rov, avvalambor, ulardan bo‘ladi.

Umuman olganda, parlament va Hukumat o‘rtasidagi munosabat qarama-qarshilikka emas, konstruktiv muloqotga asoslanishi zarurligini yana bir bor eslatib o‘tmoqchiman.

Shu bilan birga, **parlament nazorati — bu, avvalo, “xalq nazorati, xalq so‘rovi”** ekanini unutmaslik lozim. Afsuski, parlament so‘rovi, deputat so‘roviga yuzaki yondashib, unga yengil-yelpi munosabatda bo‘lish holatlari ham uchrab turibdi.

Bu borada barcha rahbarlar mas’uliyat va javobgarlikni to‘liq his etishi lozim. Ushbu masalaga bepisand qarashga hech kimning haqqi yo‘q. Parlament va deputat so‘rovlariga javob aniq va mazmunli bo‘lishi, so‘rov kimga yo‘llangan bo‘lsa, shaxsan shu rahbar tomonidan javob berilishi shart. So‘rovlarni yuborish va qabul qilish onlayn tizimga o‘tayotgani bu boradagi muammolarga yechim bo‘lishiga ishonaman.

Qadrli do‘stlar!

Mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirish uchun **samarali tashqi siyosat olib borish, do‘st va hamkorlarimiz doirasini kengaytirish, yaqin qo‘shnilarimiz bilan mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirish** o‘ta muhim vazifadir.

Shu maqsadda, avvalo, Tashqi siyosat konsepsiyasini yangi tahrirda qabul qilish zarur, deb hisoblayman. Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini yanada mustahkamlash, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash tashqi siyosatimizda ustuvor yo‘nalish bo‘lib qoladi.

Kelgusi yili yurtimizda bo‘lib o‘tadigan “Markaziy Osiyo beshligi” uchrashuvi, hech shubhasiz, shu yo‘ldagi yana bir ulkan amaliy qadam bo‘ladi. Ushbu anjumanda erkin savdo zonasini, biznes va investitsiyaviy faollik, ilmiy, texnologik va ishlab chiqarish kooperatsiyasi markazini yaratish kabi masalalarga alohida e’tibor qaratilishi ham shunday deb aytishga asos beradi.

Hozirgi vaqtda fuqarolarimiz Qirg‘izistonga ID karta bilan bemalol borib-kelmoqdalar. Endi shunday tartibni Qozog‘iston va Tojikiston bilan ham joriy etamiz.

Markaziy Osiyo mamlakatlari hamda boshqa yetakchi hamkor davlatlar, nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, moliya institutlari bilan samarali va tizimli aloqalarni yanada rivojlantirish doimo e’tiborimiz markazida bo‘ladi.

Fursatdan foydalanib, bugungi yig‘ilishda ishtirok etayotgan diplomatik korpus va xalqaro tashkilotlar vakillarini samimiy qutlaymiz.

Islohotlarimizni chin dildan qo‘llab-quvvatlab kelayotganingiz, hududlarimizga chiqib, yangilanish va o‘zgarishlar bilan yaqindan tanishib, o‘z davlatlaringizdagi tajribalarni biz bilan o‘rtoqlashayotganingiz uchun cizlarga o‘z nomimdan, xalqimiz nomidan minnatdorlik bildiraman.

Muhtaram vatandoshlar!

Bugun butun dunyo nihoyatda notinch va tahlikali vaziyatda yashayotganini barchamiz ko‘rib, his qilib turibmiz. Mana shunday murakkab davrda **davlatimizning mustaqilligi va suverenitetini, xalqimizning tinch va erkin hayotini eng bebaho boylik sifatida asrash va himoya qilish** eng muhim vazifamiz bo‘lib qoladi.

Hech qachon unutmasligimiz zarur: mamlakatimiz xavfsizligi, yurtimiz mudofaasi nafaqat Qurolli Kuchlar va huquqni muhofaza qilish idoralari, balki O‘zbekistonni o‘zi uchun ona Vatan deb biladigan, millati, tili va dinidan qat’i nazar, barcha insonlarning muqaddas burchidir. Buning uchun yagona Vatan, ko‘p millatli yagona ahil oila tuyg‘usi har birimizning qalbimiz, yuragimizdan chuqur joy olishi lozim.

Dunyoda turli xatar va tahdidlar avj olib borayotgan hozirgi sharoitda Qurolli Kuchlarimizning jangovar va ma’naviy salohiyatini oshirishga e’tiborni yanada kuchaytiramiz.

Yoshlarimiz ong-u tafakkurida milliy g‘urur bilan birga umumbashariy qadriyatlarga hurmat hissini kamol toptirish maqsadida yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish zarur. Farzandlarimizni zamonaviy bilim va dunyoqarash, daromadli kasb egalari etib tarbiyalash, ularni ilm-fan, IT texnologiyalar, ma’naviyat, san’at va adabiyot, sport bilan oshno etish uchun hech narsani ayamasdan, bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

Bugun faqat mana shunday ilg‘or yoshlarga, mana shunday jonkuyar ziyolilarga, Vatan ravnaqi yo‘lida birlashgan xalqqa ega bo‘lgan davlatgina o‘z milliy manfaatlarini ta’minlashga erisha oladi.

Shu munosabat bilan yaqinda Navoiy viloyatida aytgan fikrimni takrorlashni zarur deb bilaman.

Bizning ikkita o‘q tomirimiz, ikkita tayanch ustunimiz bor: biri — iqtisodiyot, biri — ma’naviyatdir. Ma’naviy buyuk xalq — iqtisodiy tomondan ham buyuk bo‘ladi.

Ayni vaqtda biz jamiyatimizdagi ochiqlik va erkinlik muhitini, millatlar va dinlar o‘rtasidagi ahillik va hamjihatlikni mustahkamlash, so‘z va matbuot erkinligi, vijdon erkinligini ta’minlash bo‘yicha boshlagan ishlarimizni davom ettiramiz.

Hurmatli deputat va senatorlar, yangi Hukumat, hokim va vazirlarimiz mana shu vazifalarning mohiyatini to‘g‘ri anglab, muhtaram faxriylarimiz, mahalla, xotin-qizlar, yoshlar va kasaba uyushmalari tashkilotlari, ilmiy va ijodiy ziyolilarimiz bilan bir yoqadan bosh chiqarib, faol ish olib boradilar, deb ishonaman.

Aziz yurtdoshlar!

Ko‘rib turganingizdek, oldimizda g‘oyat ulkan marralar turibdi. Yangi O‘zbekistonimiz yangi parlamenti bilan birga o‘z taraqqiyotining hal qiluvchi bosqichiga qadam qo‘ymoqda.

Albatta, bu yangi davrda endi eskicha ishlab bo‘lmaydi. Shu bois, Hukumat o‘z faoliyatini mutlaqo yangicha asosda tashkil etishi kerak. Buning uchun unga kuchli rahbar, ya’ni, Bosh vazir zarurligini barchamiz yaxshi tushunamiz.

Men bu masala haqida atroflicha o‘ylab, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri lavozimiga Abdulla Nigmatovich Aripov nomzodini ko‘rsatishga qaror qildim.

Bu rahbarni barchangiz yaxshi taniysiz. Abdulla Aripov katta tashkilotchilik salohiyatiga ega bo‘lgan, ijro hokimiyati tizimida boy bilim va tajriba orttirgan, mas’uliyatni doimo chuqur his etadigan rahbardir. U Yangi O‘zbekistondagi islohotlarning ma’no-mazmunini nafaqat chuqur tushunadi, balki ularni amalga oshirishda chinakam jonbozlik ko‘rsatib kelayotgan rahbarlarimizdan biri, desak, to‘g‘ri bo‘ladi.

U kishi bilan ancha yillar davomida birga ishlab, shunga amin bo‘ldimki, davlat miqyosidagi yirik dastur va loyihalarni amalga oshirishda doimo talabchanlik va jonkuyarlik bilan yondashadi. Abdulla Aripov mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishdan cho‘chimasligi, aholi bilan muloqot uchun har doim ochiqligi, mehnatkashligi va kamtarinligi bilan xalqimiz o‘rtasida obro‘-e’tibor qozongan.

Ushbu nomzod bugun Hukumat oldiga qo‘yilgan, ko‘lami va miqyosi benihoya katta bo‘lgan muhim vazifalarni hal etishda Vazirlar Mahkamasi faoliyatini samarali tashkil qiladi, Hukumat a’zolari, vazirlik va idoralar rahbarlarini birlashtirib, yagona maqsad sari safarbar eta oladi, deb ishonaman.

Hozirgi murakkab davrda bu juda muhim. Shu bois, bugun ana shu nomzodni sizlarning muhokamangizga taqdim etmoqdaman.

Siz, hurmatli deputatlar va fraksiyalar rahbarlaridan ushbu nomzod hamda bo‘lg‘usi Hukumatning kelgusi besh yilga mo‘ljallangan Harakatlar dasturini ko‘rib chiqib, qo‘llab-quvvatlashingizni so‘rayman.

* * *

Muhtaram vatandoshlar!

Endi, an’anamizga muvofiq, kelgusi yilda e’tiborimiz markazida bo‘ladigan eng ustuvor yo‘nalish bo‘yicha maslahatlashib olsak.

Bugun nafaqat biz, balki dunyodagi ko‘plab mamlakatlar iqlim o‘zgarishlarining salbiy oqibatlarini yaqqol his qilmoqda. Havo va suvning ifloslanishi, tuproq eroziyasi, cho‘llanish, qazilma yoqilg‘ilarni behisob ishlatish global isishga, tabiiy ofatlarning ko‘payishiga olib kelmoqda, atrof-muhit va aholi sog‘lig‘iga zarar yetkazmoqda.

Biz bu masalaning oqibatlarini oldindan ko‘rib, mazkur yo‘nalishda katta ishlarni olib boryapmiz. Bundan uch yil avval boshlangan “Yashil makon” umummilliy loyihasi hozirgi kunga kelib chinakam xalq harakatiga aylandi. Ushbu dastur qator hududlarda, jumladan, Orolbo‘yidagi ekologik vaziyatni yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Qo‘shni mamlakatlar bilan birgalikda Mintaqaviy iqlim strategiyasini amalga oshirishga kirishdik. Poytaxtimizda Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishlarini o‘rganish universiteti tashkil etildi. Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan bu borada qabul qilingan ikkita muhim rezolyutsiyaning tashabbuskori bo‘ldik. Ayni vaqtda “yashil” energetika iqtisodiyotimiz drayverlaridan biriga aylanmoqda.

Biz yangi yilga nom berish masalasida el-yurtimizning fikr-mulohazalari, xohish-istaklarini atroflicha o‘rgandik. Bildirilgan tavsiyalardan kelib chiqqan holda, boshlagan ishlarimizni yangi, yanada yuksak bosqichga ko‘tarish maqsadida men 2025-yilni yurtimizda **“Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili** deb e’lon qilishni taklif etaman.

Biz tabiat haqida so‘z yuritganda, ko‘pincha “ona tabiat” degan iborani ishlatamiz. O‘ylaymanki, bu shunchaki chiroyli, shoirona so‘z emas, balki uning zamirida chuqur hayotiy haqiqat bor.

Biz mo‘tabar ona zotini qanday yuksak hurmat-ehtirom qilsak, o‘zimizni qurshab turgan tabiatga ham shunday munosabatda bo‘lishimiz zarur.

Zero, **tabiatni asrash — insonni asrash demakdir.**

Albatta, yangi saylangan Bosh vazirimiz rahbarligidagi hukumat yil nomida belgilangan eng muhim vazifalar bo‘yicha davlat dasturini ishlab chiqadi. Ushbu dasturda “yashil” texnologiyalarni joriy etish, suvni tejash, ko‘kalamzor hududlarni keskin ko‘paytirish, Orol fojiasining oqibatlarini yumshatish, chiqindilar muammosini hal qilish, eng muhimi, aholi salomatligini mustahkamlash kabi masalalar ustuvor ahamiyat kasb etishi zarur.

Aziz va muhtaram vatandoshlar!

Bugun siz, azizlar bilan, xalqimiz bilan yurtimiz taraqqiyotidagi butunlay yangi davrga qadam qo‘ymoqdamiz.

Hech shubhasiz, bu davrning qanday bo‘lishi birgalikda o‘z oldimizga qo‘ygan ulkan maqsad va vazifalarni samarali amalga oshirishimizga bog‘liq.

Ishonchim komil, bu — **Yangi O‘zbekistonimiz jadal rivojlanadigan, yanada yuksak taraqqiyot cho‘qqilarini zabt etadigan davr** bo‘ladi.

Bu davr parlament va Hukumat faoliyatida yangicha ishlash, xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish bo‘yicha ibratli an’analar shakllanadigan va tarixga muhrlanadigan davr bo‘ladi.

Kelajak avlodlar albatta faxr bilan tilga oladigan ana shunday buyuk tarix va kelajakni yaratish bizning o‘z qo‘limizda.

Keyingi uch kun mobaynida siz, azizlar bilan, keng jamoatchiligimiz bilan mamlakatimizning bugungi va ertangi taraqqiyoti haqida atroflicha fikr almashdik. 2024-yilda — “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da bajargan ishlarimizga yakun yasadik.

Parlamentimizda — “Xalq uyi”da deputatlar bilan muhokama qilingan barcha tashabbus va rejalarni, ularda ilgari surilgan g‘oya, maqsad va vazifalarni, mohiyat e’tiboriga ko‘ra, **Oliy Majlis va xalqimizga navbatdagi Murojaatnoma** desam, o‘ylaymanki, sizlar ham bu fikrga qo‘shilasiz.

Siz, hurmatli deputatlar va Hukumatimiz a’zolari, kattayu kichik barcha rahbarlar mana shu Murojaatnomada belgilab berilgan ulkan vazifalarni amalga oshirishda fidoyilik va namuna ko‘rsatib mehnat qilasizlar, deb ishonaman.

Mana shunday sharafli maqsad yo‘lida barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt-saodat, ulkan yutuq va omadlar tilayman.

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news

Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini yanada mustahkamlash, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash tashqi siyosatimizda ustuvor yo‘nalishga aylandi.

3

Munosabat

2024-yil 21-noyabr, 236-son

YANGI O‘ZBEKISTONIMIZ YANGI PARLAMENTI BILAN BIRGA O‘Z TARAQQIYOTINING HAL QILUVCHI BOSQICHIGA QADAM QO‘YMOQDA

Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbari bu boradagi eng muhim yo‘nalishlarga e’tibor qaratdi.

Birinchidan, makroiqtisodiy muvozanatni saqlab, kelgusi besh yilda iqtisodiy o‘sish sur’atini 6-7 foiz atrofida ta’minlash zarur. Bunda inflyatsiya darajasi 5-6 foiz, budjet taqchilligi 3 foiz doirasida bo‘lishiga erishish, yillik kreditlash hajmini 30 milliard dollarga olib chiqish asosiy vazifa bo‘ladi.

Ikkinchidan, 2025-yilda 1 million aholini kambag‘allikdan chiqarish Vazirlar Mahkamasi iqtisodiy kompleksining asosiy vazifasi etib belgilanadi. Hukumat 2030-yilgacha ishsizlikni xalqaro e’tirof etilgan daraja — 5-6 foizdan oshirmaslik bo‘yicha dolzarb vazifalarni ham samarali hal etishi lozim.

Uchinchidan, iqtisodiyot va aholi daromadlarini o‘stirishda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan sanoat tarmoqlariga alohida ahamiyat qaratish kerak. Vazirlar Mahkamasining investitsiya kompleksi kelgusi yilda iqtisodiyotimiz uchun muhim bo‘lgan 300 dan ziyod yirik loyihani ishga tushirishi zarur. Iqtisodiyotni energiya resurslari bilan ishonchli ta’minlash va energiya samaradorligini 2 karra oshirish ham muhim masala.

To‘rtinchidan, kelgusi besh yilda iqtisodiyotning xususiy sektordagi ulushini 85 foizga yetkazish ham asosiy vazifalardan biridir. Bu borada 2 mingta korxonada davlat ulushini, 5 mingdan ziyod ko‘chmas mulk obyektini sotish, 16 ta yirik majmua aksiyalarini IPOga chiqarish talab etiladi. Hukumat 30 milliard dollarlik xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishni ta’minlashi kerak.

Beshinchidan, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash eng dolzarb vazifa bo‘lib qoladi. Hukumat bu sohadagi dasturlar ijrosini ta’minlab, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni 1,3 barobar oshirish, har gektar yerdan olinadigan o‘rtacha daromadni 5 ming dollarga yetkazishi zarur.

Ta’lim sifatini oshirish, sog‘liqni saqlash va sportni rivojlantirish, ijtimoiy xizmatlarni yaxshilash vazifalari ham ko‘rsatib o‘tildi.

Prezidentimiz bu maqsadlarga erishish uchun hukumat bilan parlament hamkorligi muhim ekanini ta’kidladi.

Avvalambor, ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini odamlarga yanada yaqinlashtirish lozim. Qonunlar ijrosi Oliy Majlis palatalarining tegishli qo‘mitasi va mas’ul ijro etuvchi organ bilan birgalikda o‘rganib borilishi kerak.

Hukumat, vazirlik va idoralar, hududlar rahbarlari deputatlar tomonidan joylarda aniqlangan muammolarni hal etishda quyi palata qo‘mitalari bilan tizimli hamkorlikni yo‘lga qo‘yishlari lozim. Shu bois, turli sohalarda nazoratni ta’minlovchi davlat inspeksiyalarning hisobotlarini Qonunchilik palatasi qo‘mitalarida muhokama qilib borish bo‘yicha yangi tizimni joriy etish tashabbusi ilgari surildi.

Parlament nazorati — bu, avvalo, “xalq nazorati, xalq so‘rovi” ekani ta’kidlandi. Bu borada barcha rahbarlar mas’uliyat va javobgarlikni to‘liq his etishi lozimligi ko‘rsatib o‘tildi.

Davlatimiz rahbari xalqaro hamkorlik doirasini kengaytirish, yaqin qo‘shnilar bilan mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirish masalalariga ham alohida to‘xtaldi. Shu maqsadda Tashqi siyosat konsepsiyasini yangi tahrirda qabul qilish zarurligini aytdi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari hamda boshqa yetakchi hamkor davlatlar, nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, moliya institutlari bilan samarali va tizimli aloqalarni yanada rivojlantirish doimo e’tibor markazida bo‘lishi qayd etildi.

Hozirgi tahlikali davrda davlatimizning mustaqilligi va suverenitetini, xalqimizning tinch va erkin hayotini himoya qilish eng muhim vazifa ekani ta’kidlandi. Shu bois, Qurolli Kuchlarimizning jangovar va ma’naviy salohiyatini oshirishga e’tibor yanada kuchaytiriladi. Yoshlarni zamonaviy bilim va kasb egalari etib tarbiyalashga katta imkoniyatlar safarbar etiladi.

— Bugun faqat mana shunday ilg‘or yoshlarga, mana shunday jonkuyar ziyolilarga, Vatan ravnaqi yo‘lida birlashgan xalqqa ega bo‘lgan davlatgina o‘z milliy manfaatlarini ta’minlashga erisha oladi, — dedi mamlakatimiz yetakchisi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri lavozimiga Abdulla Aripov nomzodini taqdim etdi.

A.Aripov Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan Harakat dasturini bayon qildi.

Mazkur nomzod va dastur muhokamasi yuzasidan siyosiy partiyalar fraksiya rahbarlari hamda deputatlar o‘z fikrlarini bildirdi.

Yashirin ovoz berish natijasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri lavozimiga Abdulla Aripov nomzodi ma’qullandi. Bu bo‘yicha Oliy Majlis Qonunchilik palatasining qarori qabul qilindi.

Majlis yakunida kelgusi yilgi ustuvor yo‘nalish ham muhokama qilindi.

Shavkat Mirziyoyev 2025-yilni yurtimizda “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili deb e’lon qilishni taklif etdi. Bu boradagi muhim vazifalar ko‘rsatib o‘tildi.

— Bugun xalqimiz bilan yurtimiz taraqqiyotidagi butunlay yangi davrga qadam qo‘ymoqdamiz. Ishonchim komil, bu — Yangi O‘zbekistonimiz jadal rivojlanadigan, yanada yuksak taraqqiyot cho‘qqilarini zabt etadigan davr bo‘ladi. Bu davr parlament va hukumat faoliyatida yangicha ishlash, xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish bo‘yicha ibratli an’analar shakllanadigan va tarixga muhrlanadigan davr bo‘ladi, — dedi Prezident so‘zining yakunida.

O‘zA

SAMARQANDDA INVESTITSIYA VA TADBIRKORLIK MUHITI YANADA YAXSHILANADI

Boshlanishi 1-betda

Xususan, kelgusi yilda Samarqand viloyatida hududiy dasturlar doirasida kamida 1 milliard 850 million dollar investitsiyalarni o‘zlashtirish, 20 ming ish o‘rni yaratish va qo‘shimcha 1,2 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqarish hisob-kitob qilingan.

Masalan, Pastdarg‘om tumani “Chimboyobod” hududida hokimlik zaxirasida turgan 234 gektar yerda maxsus sanoat zonasini tashkil qilish mumkin. Tadbirkorlar u yerga 500 million dollar investitsiya kiritib, farmatsevtika, kimyo, elektrotexnika, qurilish materiallari va oziq-ovqat loyihalarini boshlashga tayyorligini bildirgan.

Yoki Zarafshon daryosi atrofidagi 25 gektar toshloq yer “Urgut” erkin iqtisodiy zonasiga qo‘shilsa, 30 million dollarlik loyihalarga joy bo‘ladi. Darg‘om kanali bo‘yida 35 kilometrli turistik yo‘lak, Narpay kanalida gastronomik ko‘prik tashkil etish orqali birinchi bosqichda 500 milliard so‘mlik loyihalar amalga oshiriladi.

Viloyatdagi yaylov va lalmi yerlarni iqtisodiy aktivga aylantirish kerak. Masalan, Samarqand tumanida 350 gektar lalmi yerda turistik-rekreatsion hudud tashkil qilib, ming nafar tadbirkorni joylashtirish va 3,5 mingta ish o‘rni yaratish mumkin.

Bulung‘urning tuprog‘i, iqlimi meva-sabzavotchilikka qulay. Tumandagi 6 ming gektar samarasi kam g‘alla maydonlari meva-sabzavot yetishtirishga ixtisoslashtirilsa, gektaridan daromad 10 ming dollardan oshadi, 45 ming odam ishli bo‘ladi. Mahsulotlarning yarmi eksportga chiqarilib, qo‘shimcha 52 million dollar eksport tushumi ta’minlanadi.

Ishtixon, Urgut, Payariq va Qo‘shrabotdagi odamlar 35 ming gektarda uzum yetishtiradi. Lekin serdaromad navlarni ekish, kasallikka qarshi kurashish, yangicha agrotexnik tadbirlarga ko‘nikma yetishmagani uchun hosildorlik past. Shu bois, Ishtixonda Akademik M.Mirzayev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy-tajriba stansiyasini tashkil qilish taklifi bildirilgan. Unda “in-vitro” usulida ko‘chatchilik yo‘lga qo‘yilib, uzumning “Gigant”, “Sirliboy”, “Avatar” kabi bozorbop navlari ekiladi. Natijada hosildorlik qo‘shimcha 25-30 sentnerga, eksport 20 million dollarga oshadi.

Shuningdek, Qo‘shrabot, Ishtixon, Nurobod, Pastdarg‘om, Paxtachi va Urgutdagi konlar negizida foydali qazilmalarni qayta ishlash korxonalarini ochish mumkin.

Yig‘ilishda Samarqand viloyati hokimi shu kabi imkoniyatlarni ishga solish bo‘yicha chora-tadbirlarni taqdimot qildi.

Davlatimiz rahbari bu takliflarni ma’qullab, Samarqand viloyatida investitsiya va tadbirkorlik muhitini yaxshilash bo‘yicha qaror kiritish vazifasini qo‘ydi. Loyihalarni master-reja asosida joylashtirish, ko‘proq ish o‘rinlari va zamonaviy uy-joylar tashkil etib, aholi farovonligini oshirish yuzasidan topshiriqlar berdi.

O‘zA



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ishtirokida keyingi uch kun mobaynida senator va deputatlar, keng jamoatchilik bilan mamlakatimizning bugungi va ertangi taraqqiyoti haqida atroflicha fikr almashildi.

XALQ ISHONCHINI OQLASH ULKAN MAS’ULIYAT VA UZLUKSIZ HARAKAT TALAB ETADI

“2024-yilda – “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da bajargan ishlarimizga yakun yasadik. Parlamentimizda – “Xalq uyi”da deputatlar bilan muhokama qilingan barcha tashabbus va rejalarni, ularda ilgari surilgan g‘oya, maqsad va vazifalarni, mohiyat e’tiboriga ko‘ra, Oliy Majlis va xalqimizga navbatdagi Murojaatnoma desam, o‘ylaymanki, sizlar ham bu fikrga qo‘shilasiz. Siz, hurmatli deputatlar va Hukumatimiz a’zolari, katta-yu kichik barcha rahbarlar, mana shu Murojaatnomada belgilab berilgan ulkan vazifalarni amalga oshirishda fidoyilik va namuna ko‘rsatib mehnat qilasizlar, deb ishonaman”, dedi davlatimiz rahbari Oliy Majlis Qonunchilik palatasining O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan majlisidagi ma’ruzasida.

Bugun xalqimiz bilan yurtimiz taraqqiyotidagi butunlay yangi davrga qadam qo‘yilayotgani alohida ta’kidlandi. Bu davrda yangi O‘zbekistonimizni yanada jadal rivojlantirish, yuksak taraqqiyot cho‘qqilarini zabt etishdek ezgu marralar ko‘zlanmoqda.

Xususan, 2030-yilga borib, mamlakatimiz iqtisodiyoti hajmini 200 milliard dollarga yetkazish, aholi jon boshiga daromadlarni 5 ming dollardan oshirish, kambag‘allik darajasini 5 foizga tushirib, ehtiyojmand aholi uchun mustahkam ijtimoiy sug‘urta tizimini joriy etish singari inson qadrini ulug‘lashga qaratilgan ko‘plab maqsad va rejalarni ro‘yobga chiqarish ko‘zda tutilmoqda.

Bu esa parlament va hukumat faoliyatida, barcha soha va tarmoqlarda ishlarni yangicha tamoyillar asosida tashkil etish, xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilishni taqozo etadi.

Tadbirda ishtirok etgan senatorlar va deputatlar davlatimiz rahbarining ma’ruzasida ilgari surilgan g‘oya va tashabbuslar yuzasidan o‘z fikr-munosabatini bildirdi.

Aholining turmush sharoiti va salomatligi yaxshilanadi



Sevara UBAYDULLAYEVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:

— Prezidentimiz o‘z ma’ruzasida aholining salomatligini saqlash va tibbiy xizmatlarning sifatini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratdi. Bu borada o‘rtacha umr ko‘rish darajasini 78 yoshga yetkazish maqsadiga erishish uchun birlamchi tibbiy xizmatlarning qulayligi va sifatini oshirish ustuvor vazifa sifatida qayd etildi.

Kelgusi yillarda birlamchi bo‘g‘inda ayollarni skriningdan o‘tkazish va raqamlashtirish orqali saraton kasalini erta aniqlash ko‘rsatkichini hozirgi darajadan sezilarli oshirish rejalashtirilgan. Ayniqsa, erta tashxis qo‘yish ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi orqali aholi salomatligini tiklashga bo‘lgan imkoniyatlar kengayadi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari mahallalarda tibbiyot brigadalarini o‘qitish va uy sharoitida bemorlarni reabilitatsiya bilan qamrab olish bo‘yicha yangi tizimni joriy etish zarurligini ta’kidladi. Tug‘uruqxonalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun 100 million dollar ajratilishi qayd etildi. Shubhasiz, bu mablag‘ tug‘uruqxonalarda sifatli va zamonaviy xizmat ko‘rsatishni ta’minlaydi.

Shu bilan birga, davlat tibbiy sug‘urtasi va aholiga kafolatlangan paket asosida tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini barcha shahar, tuman va qishloqlarga tatbiq etish rejasi haqida so‘z bordi. Bu tizim orqali aholi, jumladan, eng ehtiyojmand qatlamlar kafolatlangan tibbiy xizmatdan bahramand bo‘ladi. Bu davlatning aholi salomatligiga bo‘lgan e’tiborini yaqqol namoyon etadi. “Inson qadri uchun” tamoyilining amaliy ifodasi hisoblanadi.

Prezidentimiz sog‘lom turmush tarzi, to‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirishga qaratilgan alohida dasturlar ishlab chiqish zarurligini ham ta’kidladi. Bu kabi dasturlar nafaqat salomatlikni saqlash, balki jamiyatdagi ijtimoiy faollikni oshirishga xizmat qiladi.

Samarali tashqi siyosat barqaror rivojlanish asosi



Anvar TO‘YCHIYEV, Oliy Majlis Senati qo‘mita raisi:

— Mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirish uchun samarali tashqi siyosat olib borish, hamkor davlatlar doirasini kengaytirish, yaqin qo‘shnilarimiz bilan mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirish o‘ta muhim vazifa. So‘nggi yillarda bu yo‘nalishda keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini yanada mustahkamlash, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash tashqi siyosatimizda ustuvor yo‘nalishga aylandi. Buning natijasida qo‘shnilarimiz bilan aloqalar tobora rivojlanyapti, bordi-keldilar ko‘payyapti. Masalan, qo‘shni Qirg‘izistonga fuqarolarimiz ID karta bilan bemalol borib kelmoqda. Bundan xalqimiz benihoya xursand ekanini bildirmoqda.

Majlisda endi Qozog‘iston hamda Tojikiston bilan ham ID karta bilan bemalol kirish tartibi joriy etish haqida so‘z yuritildi. Bu xabar barchamizni ruhlantirdi. Zero, azal-azaldan do‘st va ahil-inoq bo‘lgan qardoshlarimiz bilan do‘stligimiz mustahkam bo‘lsa, bu barchamizga manfaatli bo‘ladi. Qolaversa, mamlakatlarimiz iqtisodiy rivoji uchun ham bu imkoniyat muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Shu ma’noda, 2025-yilda yurtimizda bo‘lib o‘tadigan “Markaziy Osiyo beshligi” uchrashuvi aloqalarimiz rivojida yana bir ulkan amaliy qadam bo‘ladi.

Parlament va hukumat o‘rtasidagi munosabatlar qarama-qarshilikka emas, konstruktiv muloqotga asoslanishi lozim

Abdullo ASLONOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:



— Bugungi kunda Qonunchilik palatasi vazir nomzodlarini ma’qullash bo‘yicha muhim vakolatga ega. Bu nafaqat demokratiyaning yanada chuqurlashishi, balki davlat boshqaruvida deputatlar zimmasiga ulkan mas’uliyat yuklayotganidan dalolatdir.

Oxirgi besh yil davomida vazirlar parlamentimiz tasdig‘idan o‘tib kelmoqda. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, bunday demokratik tartib hukumat faoliyatini yanada shaffof qilishga xizmat qiladi. Bunda har bir vazirning o‘z faoliyati uchun mas’uliyatli bo‘lishi va uning samaradorligi yuzasidan parlament oldida hisobdorlik berishini ta’minlaydi. Bu jarayon deputatlar uchun ham katta mas’uliyat demakdir. Chunki biz ma’qullayotgan har bir nomzod xalq oldidagi burchini qanchalik samarali ado etayotganiga to‘g‘ridan to‘g‘ri javobgar bo‘lamiz.

Ta’kidlanganidek, parlament va hukumat o‘rtasidagi munosabatlar qarama-qarshilikka emas, konstruktiv muloqotga asoslanishi lozim. Bu, avvalo, hukumat qarorlari va amalga oshiriladigan siyosatning sifatini oshirishga xizmat qiladi. Biz, deputatlar faqatgina tanqid yoki nazorat bilan cheklanib qolmasligimiz kerak. Balki hukumatga yordam berish, uning faoliyatini yanada samarali qilish uchun taklif va tashabbuslarimizni bildirishimiz zarur.

Bugungi majlisda muhokama qilingan masalalarni mamlakatimiz taraqqiyoti uchun juda muhim deb bilamiz. Yangi O‘zbekistonda vazirliklarga rahbar bo‘ladigan shaxslarni ma’qullash faqat siyosiy jarayon emas, balki davlat boshqaruvining sifatini belgilaydigan o‘ta muhim qadamdir. Har bir vazirlik rahbari o‘z sohasidagi muammolarga yechim topishda professionallik va xalqparvarlik tamoyillariga asoslanishi kerak.

Shu nuqtayi nazardan, Prezidentimiz belgilab bergan bu yondashuv asosida biz, deputatlar hukumat faoliyatini samarali tashkil etishda faol ishtirok etishimiz, parlament nazorati va hukumat bilan muloqotni yanada yuqori bosqichga olib chiqishimiz zarur. Bunday yondashuv bilan xalqimiz ishonchini oqlaymiz va mamlakatimizning yanada rivojlanishiga hissa qo‘shamiz.

> **“Parlament va hukumat o‘rtasidagi munosabatlar qarama-qarshilikka emas, konstruktiv muloqotga asoslanishi lozim. Bu, avvalo, hukumat qarorlari va amalga oshiriladigan siyosatning sifatini oshirishga xizmat qiladi. Biz, deputatlar faqatgina tanqid yoki nazorat bilan cheklanib qolmasligimiz kerak. Balki hukumatga yordam berish, uning faoliyatini yanada samarali qilish uchun taklif va tashabbuslarimizni bildirishimiz zarur.**

Yoshlar kamolotini ta’minlashda barchamiz mas’ulmiz

Munojat YO‘LCHIYEVA, Oliy Majlis Senati a’zosi:



— Davlatimiz rahbari ishtirokida o‘tgan yig‘ilishda ko‘plab muhim masalalar qatorida yoshlar siyosatiga doir dolzarb vazifalar ham tahlil etildi. Bu chora-tadbirlarni hal etishda parlamentning o‘rni muhimligi aytib o‘tildi. Xususan, yoshlarimiz ongu tafakkurida milliy g‘urur, umumbashariy qadriyatlarga hurmat hissini kamol toptirish bugungi kunda dolzarb vazifa ekanligiga e’tibor qaratildi.

Bu yo‘nalishda yurtimizda keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Farzandlarimizni zamonaviy bilim va dunyoqarash, daromadli kasb egalari etib tarbiyalash maqsadida yuksak texnologiyalar asosida ta’lim berilyapti, yangicha kasb-hunarlar o‘rgatilyapti. O‘g‘il-qizlarimiz sog‘lom bo‘lishi, bolalikdan chiniqishi uchun sportga oshno etish maqsadida hech narsani ayamasdan, bor kuch va imkoniyatlar safarbar etilyapti.

Majlisda ta’lim sifatini yanada oshirish, yoshlarimizni har tomonlama yetuk insonlar etib tarbiyalashga qaratilgan siyosat izchil davom ettirilishi ta’kidlandi. Xususan, bog‘chalarda qamrovni oshirish, maktablarning moddiy-texnik bazasini yanada yaxshilash, oliy ta’lim muassasalariga qamrovni ko‘paytirish masalalariga e’tibor qaratildi.

Ustoz sifatida bu yo‘nalishdagi islohotlarning ahamiyatini men ham yaxshi anglayman. Zero, ta’limga berilayotgan e’tibor kelajakka yo‘naltirilgan ulkan sarmoyadir. Shu bois, bunday xayrli ishlarga hissa qo‘shish barchamizga ulkan mas’uliyat yuklaydi, o‘zgacha faxr-iftixor baxsh etadi. Shu maqsadda kelajak avlodimizning ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanish barobarida sohadagi islohotlarni takomillashtirishga xizmat qiladigan qonunlar ishlab chiqilishida tashabbus ko‘rsatish, ayni paytda joylarda ularning ijrosi ta’minlanishida mahalliy deputatlar bilan hamkorlikda ish olib borishni maqsad qilyapmiz.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Bahor XIDIROVA tayyorladi.

Bitta tadbirkor, avvalo, o‘zi va oilasi turmush farovonligini oshirish barobarida boshqa bir kishini ish bilan ta’minlaganda ham jamiyat rivojiga hissa qo‘shadi.

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

2024-yil 21-noyabr, 236-son

Taraqqiyot odimlari

20-MEZON TAFSILOTLARI

IMKONIYATI CHEKLANGAN ISHCHI TADBIRKORGA QO‘SHIMCHA BALL VA IMTIYOZ OLIB KELADI

YUQORI FOIZ YUQORI BALL DEGANI

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Yurtimizda tadbirkorlarning barqarorlik reytingi joriy etilishi ishbilarmon doira vakillari uchun katta qulaylik bo‘ldi. O‘z faoliyatini takomillashtirib, qonunchilikda belgilangan majburiyatlarni to‘g‘ri bajarish asnosida yuqori toifaga ko‘tarilayotgan tadbirkorlik subyektlari qo‘shimcha rag‘bat va imtiyozlar olyapti. Bu boshqa biznes egalarida ham qiziqish uyg‘otib, past toifadan chiqib olishga undayotir. Birgina misol, platforma ishga tushirilgan joriy yil 1-fevralda eng yuqori “AAA” toifadagi tadbirkorlik subyektlari soni 38 tani tashkil etgan bo‘lsa, hozirgi kunda 1720 tadan oshdi.



Tadbirkorlik reytingi — ishbilarmonlar faoliyatini baholovchi mezon. Tizim yuqori, o‘rta, qoniqarli va quyi toifalarga bo‘linadi. Ular ham yana bir necha toifaga ajratiladi. Yuqori toifa “AAA”, “AA”, “A” darajalarni o‘z ichiga olsa, o‘rta “B” hamda qoniqarli “C” toifalar ham shu tarzda saralanadi. Quyi “D” toifa esa yagona darajadan iborat. Bu toifalar bejiz saralanmaydi. Baholash asosida rag‘bat va imtiyozlar taqdim etib boriladi. Masalan, agar tadbirkor “AAA” toifadagi reytingga ega bo‘lsa, soliq tekshiruvlaridan to‘liq ozod bo‘ladi, QQSdan hosil bo‘lgan soliq summasi amaldagi 7 kundan 30 kungacha bo‘lgan muddatda emas, balki bir kunda qaytariladi va hokazo.

Umumiy baho esa to‘plab boriladigan ballar orqali jamg‘ariladi. Qo‘lga kiritilgan har bir ball yuqori toifa tomon tashlangan qadamdir. Xususan, soliq hisobotlarini belgilangan muddatlarda taqdim etish tadbirkorlik subyektiga 10 ball, hisoblangan soliq summasining belgilangan muddatda to‘lanishi 10 ball, hisoblangan soliq summasini to‘lov topshiriqnoma orqali amalga oshirish 10 ball to‘plash imkonini beradi.



Baholashda nafaqat soliq tizimi, balki boshqa ko‘plab mezonlar nazarda tutilgan. Shulardan biri Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingidagi 20-mezon bo‘lib, unda biznes egalariga ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami bandligini ta’minlaganlik uchun qo‘shimcha imtiyozlar berish nazarda tutilgan. Ushbu vazifa joriy yil 20-fevralda Prezidentimiz raisligida o‘tgan videoselektor yig‘ilishida belgilangan edi. Shundan so‘ng “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”, ijtimoiy reyestrdagi va nogironligi bo‘lgan shaxslarni ish bilan ta’minlagan tadbirkorlik subyektlariga qo‘shimcha 5 ball va 10 ball berish ko‘rsatkichi kiritildi.

Qisqa vaqtda ushbu xayrli harakat ishtirokchisiga aylanish istagidagi tadbirkorlar soni ortib bormoqda. Bugungi kunga kelib, yurtimizda 64 mingdan ziyod korxona mazkur qo‘shimcha ball beruvchi mezondan foydalanib, ijtimoiy himoya yagona reyestrdagi fuqarolar bandligini ta’minlash orqali rag‘batlantiruvchi ballarga ega bo‘lgan. Bu minglab kam ta’minlangan oilalar a’zolari doimiy ish va daromad manbaiga ega bo‘lmoqda, degani. Tadbirkorlik subyektlari ham bundan manfaatdor, qo‘shimcha imtiyozlar faoliyatining yanada kengayishiga xizmat qilyapti.



— Korxonamizda ishlaydigan xodimlar orasida ijtimoiy reyestrdagi va nogironligi bo‘lgan shaxslar ko‘pchilikni tashkil etadi, — deydi Toshkent shahridagi “Sharqona baraka textile” MCHJ rahbari Qodirjon Umarov. — Ayni paytda mehnat qilayotgan 50 ga yaqin ishchining 15 foizi nogironligi bo‘lgan kishilardir. Ularni ishga jalb qilish orqali ham bandligini ta’minlayapmiz, ham barqarorlik reytingi mezonlarida ko‘rsatilgan qo‘shimcha ballarni qo‘lga kiritib, tegishli imtiyozlarga ega bo‘lyapmiz. Ya’ni ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarga ish berganimiz uchun imtiyozlar ajratilishi bizni yanada rag‘batlantiryapti. Hozirgi kunda korxonamizda 50 turga yaqin kiyim-kechak ishlab chiqariladi. Sifatga alohida e’tibor qaratamiz. Mahsulotlarni Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikistonga eksport qilyapmiz. Kelgusida faoliyatimizni yanada kengaytirib, yangi ish o‘rinlari yaratish harakatidamiz.

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingiga 20-mezonning kiritilishi ayni muddao bo‘ldi. Ishbilarmon yurtdoshlarimiz avval ham ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilarni ish bilan ta’minlab, bo‘sh ish o‘rinlarining bir qismini ularga ajratayotgan edi. Endi buning uchun ularga qo‘shimcha ball va imtiyozlar berilishi yanada rag‘batga undayotgani, shubhasiz.

— Ayni mezon bo‘yicha 44 ming 983 ta korxona jami xodimlarining 20 foizdan ortig‘ini ijtimoiy reyestrdagi va nogironligi bo‘lgan shaxslar tashkil etishi hisobiga 10 ballga, 19 ming 371 ta korxona esa bu ko‘rsatkichni 10 foizdan 20 foizgacha yetkazgani uchun 5 ballga ega bo‘ldi, — deydi Savdo-sanoat palatasi boshqarma boshlig‘i Sarvarbek Niyozov. — Bu ballar toifalarga ajratishda hisobga olinadi va shu orqali tadbirkorlik subyektiga qo‘shimcha rag‘batlantirishlar beriladi. Toifalar doirasidagi rag‘batlantirishlar qatoriga muntazam yangilari qo‘shib borilayotgani ham qulayliklardan biri. Ishbilarmonlar ulardan qancha ko‘p foydalansa, faoliyati shuncha yaxshilanib boradi. Mazkur tizimni joriy etishdan ko‘zlangan maqsad ham shu. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini ballar asosida baholash yangicha mexanizm bo‘lib, reyting ko‘rsatkichlari Soliq qo‘mitasining “Tadbirkorlarning barqarorlik reytingi” elektron platformasida idoralararo axborot almashinuvi vositasida avtomatik tarzda (onlayn) shakllantirilib, Savdo-sanoat palatasining rasmiy veb-saytida e’lon qilib borilmoqda. Hozirgi kunda ushbu reyting bo‘yicha 567 ming 31 ta tadbirkorlik subyekti baholanyapti. Oxirgi ma’lumotlarga ko‘ra, yuqori reytingga ega tadbirkorlar soni bo‘yicha Toshkent shahri, Toshkent va Samarqand viloyatlari peshqadamlik qilayotgan bo‘lsa, sohalar kesimida xizmat ko‘rsatish, savdo va sanoat tarmoqlari oldinda.

Ushbu natijalar o‘zgaruvchan bo‘lib, doimiy tahlillar asosida yangilab boriladi. Masalan, reyting joriy etilgan dastlabki oylarda yuqori toifadagi tadbirkorlar soni bo‘yicha Andijon viloyati yetakchilar safida edi, bugungi kunda uchlikdan Samarqand viloyati joy olgan. Asosiysi, barqarorlik reytingi kutilgan natijani berayotganida. Jarayonda esa Savdo-sanoat palatasi Soliq qo‘mitasi hamda Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil bilan birgalikda o‘rta, qoniqarli va quyi barqarorlik reytingidagi tadbirkorlik subyektlarining reyting ko‘rsatkichlarini yaxshilash bo‘yicha ularga tizimli ravishda amaliy yordam ko‘rsatib kelmoqda.

Yurtimizda tadbirkorlarga katta ishonch, rag‘bat va imtiyozlar berilayotgani bejiz emas. Boisi, jahon amaliyotida ham biznesga rivojlanishning muhim omili sifatida qaraladi. O‘zbekiston sharoitida tadbirkorlik muhiti yaxshilanishi qisqa vaqtda, shiddat bilan kechganiga guvohmiz. Soha rivoji ham xuddi shunday shiddat bilan davom etyapti.

Bitta tadbirkor, avvalo, o‘zi va oilasi turmush farovonligini oshirish barobarida boshqa bir kishini ish bilan ta’minlaganda ham jamiyat rivojiga hissa qo‘shadi. Juda ko‘p tadbirkorlar bilan suhbatlashganimda, ularning asosiy maqsadi faoliyatini rivojlantirish orqali ko‘plab odamlar uchun bo‘sh ish o‘rinlari yaratish, yon-atrofidagi kishilarni ham daromadli qilish ekanini aytadi. Bu millatimizga xos bag‘rikenglik, nafaqat o‘zimga, balki boshqalarga ham bo‘lsin, degan ezgu niyatning ifodasi bo‘lsa kerak. Bunday ishda baraka ham, unum ham bo‘laveradi.

— Korxonamizda 160 dan ziyod xodim ishlaydi, shundan 16 nafari ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi vakili, — deydi Toshkent shahridagi “Uzpolitex holding” MCHJ moliyaviy direktori Narzulla Yunusov. — Ularda ishchanlik, ishtiyoq, o‘ziga berilgan vazifaga sidqidildan kirishish jihatlari yuqori. Shu bois, ularni nafaqat yordam, qo‘llab-quvvatlov sifatida, balki yaxshi xodim sifatida ham ishga qabul qilamiz. Xodimlarni rozi qilish orqali ishimizda baraka bo‘ladi. Qolaversa, korxonamiz yuqori “AAA” reytingdagi o‘rnini saqlab turishiga shu jihat xizmat qiladi. Faoliyatimiz keng turdagi polepropilin qoplarni ekologik toza sharoitda, chiqindisiz ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Kelasi yil birinchi choragida xorijdan yangi texnologik asbob-uskunalar olib kelishni rejalashtirganmiz. Shu tariqa yana qo‘shimcha 70 dan ziyod kishi ish bilan ta’minlanadi. Bunda, asosan, ijtimoiy himoyaga muhtoj hamyurtlarimizni ish bilan ta’minlashni maqsad qilganmiz.

DO‘STLIK TAJRIBASI

SUV TEJAMKORLIGIda yangicha YONDASHUV

Agrar tarmoq

Farhod NE’MATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida foydalanilayotgan suvning 80 foizidan ortig‘i qo‘shni davlatlar hududlaridan oqib kelishini hisobga olsak, bizda obihayot barqarorligini ta’minlash masalasi o‘ta muhim.
Suv resurslari taqchilligi Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlarida kuzatilmoqda. Ammo O‘zbekiston Markaziy Osiyoning asosiy suv manbasi bo‘lgan Sirdaryo va Amudaryoning quyi qismida joylashgani sababli suvni tejash, undan oqilona foydalanish masalasiga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda.



Joriy yilning 7-noyabr kuni Prezidentimiz raisligida qishloq xo‘jaligida suv va energiya manbalaridan oqilona foydalanish hamda yo‘qotishlarni kamaytirish chora-tadbirlari yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida qishloq xo‘jaligida suvdan unumli foydalanish bo‘yicha mutasaddilarga qator topshiriqlar berildi. Aynan bu borada yangiliklar, erishilayotgan ijobiy natijalar Do‘stlik tumani misolida ko‘rib chiqildi. Gap shundaki, Do‘stlik tumanida xitoylik investorlar bilan suv boshqaruvini aqlli tizimga o‘tkazish bo‘yicha loyiha yakuniga yetkazildi.

Davlatimiz rahbari bunday innovatsion loyihani namuna sifatida e’tirof etib, viloyatlar hokimlariga Do‘stlikdagi yangi tizimni o‘rganish, viloyatlardagi suv ta’minoti og‘ir va xarajati qimmat bittadan tumanda Do‘stlik tajribasini joriy qilish topshirig‘ini berdi.

Xo‘sh, ushbu loyihadan ko‘zlangan maqsad nima?

Suv xo‘jaligi vazirligining ilmiy-texnik kengashida ma’qullangan loyiha ishchi hujjatlariga “Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish respublika markazi” DMdan ijobiy xulosa olingan.

Davlat budjetiga yukni kamaytirish, xususiy sektorni jalb qilish, xizmatlar sifatini oshirish, innovatsiyalarni rag‘batlantirish maqsadida loyiha davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida amalga oshiriladi. Davlat sherigi tomonidan (Suv xo‘jaligi vazirligi) sug‘orish tarmoqlari ta’mirlanadi, 200 kilometr lotok va kanallar rekonstruksiya qilinib, yangilanadi.

Xususiy sherik tomonidan 21,6 million dollar miqdorida investitsiya kiritiladi. Shundan 6,6 million dollarga kanallarda suv boshqarish darvozalari, o‘lchov uskunalari, videokameralar o‘rnatiladi, 0,9 million dollarga dasturiy ta’minot, mustaqil aloqa tizimi (Wi-Fi) va videokuzatuv uskunalari, 11,6 million dollarga fermerlar suv olish nuqtalari avtomatlashtirilib, hisoblagichlar o‘rnatiladi. 2,5 million dollar suvni onlayn boshqarish va nazorat qilish markazi hamda soliq to‘lovlari uchun sarflanadi. Yillik suv yetkazib berish hajmi 236 million kub metrga yetkaziladi.

Loyiha doirasida suv yetkazib berish narxi 1 kub metr uchun 200 so‘m, suv solig‘i 1 kub metr uchun 100 so‘m etib belgilangan. Yillik daromad 47,2 milliard so‘mni tashkil etadi. Loyiha 12 yilda o‘zini oqlaydi. Ekspluatatsiya davri 35-yil. Do‘stlik tumani fermer xo‘jaliklariga loyiha taqdimot qilinganda, so‘rovnomada ishtirok etgan 366 fermerga loyiha ma’qul bo‘lgan.

Loyiha amalga oshirilgach, boshqaruv tizimi avtomatlashtirilib, suv iste’molining aniq hisob-kitobi yo‘lga qo‘yiladi. Yiliga 83 million kub metr suv boshqaruvni avtomatlashtirish hamda sug‘orish tarmoqlari ta’mirlanishi hisobiga tejaladi. Suv tekin, degan tushunchadan voz kechiladi, to‘lovlar undirilishi darajasi oshadi. Davlat budjeti mablag‘lari tejaladi (ish haqi va ekspluatatsiya xarajatlari 30 yil davomida 85 milliard so‘m), 20 million dollardan ortiq investitsiya kiritiladi. Tumanda suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish uchun 297 milliard so‘m kredit ajratiladi. Inson omili kamayadi.

— Jizzax viloyatida joriy yilda jami 56 ming 408 gektar, jumladan, 7442 gektarda tomchilatib, 6340 gektarda yomg‘irlatib, 1175 gektarda diskret sug‘orish, 24 ming 3 gektarda lazerli tekislash, 17 ming 448 gektarda egiluvchan quvur va plyonka to‘shab sug‘orish bo‘yicha suv tejovchi texnologiyalar joriy etildi, — deydi Sirdaryo — Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari Arslon Mustaqov. — Natijada 148 million kub metr suv, 10 ming 197 kilovatt elektr energiyasi iqtisod qilinib, hosildorlik 12 foiz oshdi. Ayni paytda davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “Bir kanal bir tizim” yo‘nalishi bo‘yicha, ya’ni bir kanaldan suv olishga bog‘langan barcha fermerlarga suv tejovchi qurilma o‘rnatish borasida ishlayapmiz. Bunda, avvalo, kanal boshida joylashgan fermerlarga suv tejovchi qurilma o‘rnatilyapti.

— Yig‘ilishda respublikamizdagi 2,5 million gektar yerni sug‘orishga 1600 dan ziyod nasos stansiyasi yiliga 6,8 milliard kilovatt elektr energiyasi sarflayotgani, xususiy sheriklik asosida tejamkor nasos va quyosh panellarini o‘rnatib, 20 foiz elektrni tejash mumkinligi ko‘rsatib o‘tildi, — deydi suv xo‘jaligi vaziri Shavkat Hamroyev. — Buning to‘g‘riligini Jizzax viloyati tajribasida ko‘rishimiz mumkin. Viloyatda suv xo‘jaligi sohasida 2021-2023-yillarda davlat-xususiy sheriklik asosida umumiy qiymati 391,3 milliard so‘mlik 10 ta loyiha amalga oshirildi. Loyiha doirasida xususiy sheriklar tomonidan 22,7 milliard so‘m investitsiya kiritildi. Natijada hozirgacha 39,2 million kilovatt/soat elektr energiyasi va 23,4 milliard so‘m budjet mablag‘i iqtisod qilinishiga erishildi.

Misol uchun, xususiy sherik “G‘allaorol xususiy qurilish ta’mirlash” korxonasi tomonidan Arnasoy, Do‘stlik, Mirzacho‘l, Sharof Rashidov tumanlarini suv bilan ta’minlaydigan Arnasoy 1, Arnasoy 2, Arnasoy 3, Mashina kanali va Oqtosh nasos stansiyalarini qurish va rekonstruksiya uchun 15,9 milliard so‘m yo‘naltirilib, 23 agregat hamda dvigatel to‘liq ta’mirlangan. 23 ta boshqaruv qurilmasi, nasos stansiyalariga 200 kilovattlik quyosh panellari o‘rnatilgan. Natijada ushbu obyektlarda 2021-2024-yillarda o‘rtacha 7,1 million kilovatt elektr energiyasi tejalgan. Eng muhimi, iste’molchilar o‘z vaqtida sifatli va yetarli suv bilan ta’minlanmoqda.

Mamlakatimizda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, undan foydalanish madaniyatini yuksaltirish orqali aholi ongida shakllangan “suv tekin” tushunchasidan voz kechish hamda tejamkor texnologiyalarini qo‘llashda Prezidentimizning 2024-yil 5-yanvardagi “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori muhim rol o‘ynamoqda. Negaki, mazkur qaror bilan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan davlat budjetiga tushgan tushumning 40 foizi suv yetkazib berish xizmatlari faoliyatini moliyalashtirish, ularning balansidagi obyektlarni saqlash va texnik holatini yaxshilashga yo‘naltirilyapti. Birgina Zarbdor tumani suv yetkazib berish xizmatiga joriy yilda shu tartibda 7,9 milliard so‘m tushirilishi ko‘zda tutilgan. Buning evaziga tumanga 1 ta ekskavator sotib olinib, 128 kilometr uzunlikdagi xo‘jalik ichki sug‘orish tarmog‘i tozalanishi, 116 kilometr ichki ariq betonlashtirilishi va xo‘jalik ichki kanallar ta’mirlanishi, hududlarga biriktirilgan suvchilarga 17 ta skuter, 20 ta planshet sotib olinishi rejalashtirilgan.

Eng muhimi, targ‘ibot-tashviqot ishlari tufayli fermer va dehqon xo‘jaligi rahbarlari tasavvurida suvga ne’mat emas, tovar sifatida qarash ko‘nikmasi shakllanmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan 2025-yil suv xo‘jaligida “Nasoslar samaradorligini oshirish yili” bo‘lishi hamda oldimizda xususiy sheriklik asosida tejamkor nasos va quyosh panellarini o‘rnatib, elektr energiyasini tejash vazifasi turibdi.



2025-YIL – ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

DUNYO EZGULIK BOG‘IGA AYLANSIN!

YANGI O‘ZBEKISTON ILGARI SURAYOTGAN HAYOTBAXSH TASHABBUSLAR



Boboravshan G‘OZIDDINOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Xalqimiz so‘z va amal birligiga jiddiy e’tibor beradi. Shu ma’noda, davlatimiz rahbari tomonidan yurtimizda 2025-yilning “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e’lon qilinishi xalqaro maydondagi tashabbuslarimiz ortga qaytmas tus olgan siyosiy irodamiz ifodasi ekaniga yana bir dalil bo‘ldi. Qolaversa, Boku shahrida o‘tkazilgan BMTning Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi hadli konvensiyasi Tomonlari konferensiyasining 29-sessiyasi (COP29) doirasidagi Jahon yetakchilari sammitining yalpi majlisida davlatimiz rahbari so‘zlagan nutqi va ilgari surgan tashabbuslari ham yuqoridagi fikrimizni isbotlaydi.



Yangi O‘zbekiston dunyo hamjamiyatini ziddiyatlarni diplomatik yo‘l bilan hal etishga chaqirmoqda. Ayni damda ekologik muammolarga birgalikda yechim topishni taklif etmoqda. Shuning o‘ziyoq mamlakatimizda ichki va tashqi siyosat insonparvarlik tamoyili asosida yuritilayotganini ko‘rsatadi.

Xo‘sh, biz nega xalqaro maydondagi geosiyosiy jarayonlar va ekologik masalalarni bir vaqtda yodga olyapmiz? Chunki buning tub mohiyati bitta. Bugun shu haqiqatni teran anglagan holda, ichki siyosatda ham, xalqaro miqyosda ham ushbu masalalarga jiddiy e’tibor berayapmiz. Keling, bu haqida batafsil to‘xtalsak.

Dunyo tom ma’noda cho‘llanib boryapti. Abadiy muzliklarning erishi tezlashdi, suv taqchilligi oshib bormoqda. Bunga ilmiy faktlar yetarlicha topiladi. Ularni takrorlash shart emas, nazarimda. Afsuski, jahon sahnida suv bilan birga yaxshilik, ezgu amallar taqchilligi ham kuzatilmoqda. Ayrim mamlakatlar qisqa vaqtda urush maydoniga aylandi. Nizoni tinch yo‘l bilan hal qilishga qodir bo‘lganlar holatni jimgina kuzatib turibdi. Shu orqali o‘z manfaati uchun hech narsadan tap tortmasligini yashirmayapti ham. Ha, bir vaqtlar yer talashgan insoniyat endi osmonni bo‘lib olish tashvishida. Bugun hatto koinotga ham qurol o‘rnatib, boshqalarni qo‘rquvda ushlab turish, dunyoni egallash istagi kuchayib borayotir. Shunday tahlikali, sertashvish davrda qanday yo‘l tutish zarur?

Hazrat Alisher Navoiy olti asr avval “Olam ahli, bilingizkim, ish emas dushmanlig‘, Yor o‘ling bir-biringizgakim, erur yorlig‘ ish”, degan edi. Bugun O‘zbekiston dunyoga mana shu chaqiriq bilan bot-bot murojaat qilmoqda. Xususan, davlatimiz rahbari shu yil 6-noyabr kuni Bishkek shahrida Turkiy davlatlar tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisida so‘zlagan nutqida va 11-noyabr kuni navbatdan tashqari o‘tkazilgan Arab-islom qo‘shma sammitida ham yana bir bor nizolarni tinch, diplomatik yo‘l bilan hal etishga chaqirdi. Albatta, bu shunchaki chaqiriq emas. Uning amaliy ifodasini bugun mamlakatimizdagi ichki va tashqi siyosatda yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Keyingi yillarda yangi O‘zbekistonning tinchlik siyosati mintaqa va xalqaro miqyosda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Avvalo, qo‘shni mamlakatlar bilan munosabatlarni yaxshilash, hamkorlikni mustahkamlash, shuningdek, o‘zaro hurmat va tinchlikka asoslangan yo‘lni tanladik. Qo‘shni davlatlar bilan bordi-keldimiz yangi bosqichga chiqdi. Ular bilan savdo va transport yo‘nalishlari, mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash borasidagi hamkorlik kuchaydi. Bugun Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi ijobiy munosabat xalqaro maydonda ham yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Takror bo‘lsa-da, aytamiz: Parij — 2024 yozgi olimpiya o‘yinlarida bir-birimizni qo‘llab-quvvatladik.

Bunday yaqinlik turizm misolida yanada yaqqol ko‘rinadi. So‘nggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlari orasida o‘zaro sayyohlik ko‘rsatkichi keskin oshdi. Masalan, yil boshidan beri Qozog‘istonga eng ko‘p sayyoh O‘zbekistondan borgan. Statistika agentligi ma’lumotiga ko‘ra, yil boshidan buyon yurtimizga kelgan eng ko‘p sayyoh qo‘shni davlatlar fuqarolaridir. Ayni ko‘rsatkich bo‘yicha o‘tgan yili Qirg‘iziston va Qozog‘iston avvalgi o‘rinlarni egallagan edi. Bu yil esa kuchli uchlikni to‘liq qo‘shnilarimiz band qildi. Yurtimizga yil boshidan beri eng ko‘p tojikistonliklar kelgani aniq bo‘ldi. Keyingi o‘rinlarda qirg‘iz va qozoq qardoshlarimiz turibdi.

Shu yil to‘qqiz oyda kelgan sayyohlarning katta oqimi tashrifi sababini qarindoshlar holidan xabar olish deb belgilagan. Bu — muhim fakt, xalqlarimiz et va tirnoqday yaqin ekanidan dalolat. Ha, jahon ayvonida bir-birimizga bejiz dalda bo‘layotganimiz yo‘q. Xalqlarimiz munosabati qondoshlik rishtalari bilan mustahkamlangan. Ayni damda yana bir achchiq haqiqatni unutmaslik kerak. Insoniyat tarixidagi ilk ziddiyatni tug‘ishgan aka-ukalar — Qobil va Hobil boshlab bergan. Demak, bugungidek tahlikali, xalqaro kelishuvlar ham osongina buzilayotgan davrda faqat qondoshlik rishtasi tinchlik kafolati bo‘lmaydi. Fitnalar sabab qardosh xalqlarimiz boshiga ne kunlar tushganini yoshi 50 ga borgan avlod juda yaxshi eslaydi.

Bugun O‘zbekiston ana shunday tushunmovchilikka barham beradigan, o‘zaro hurmat ruhida siyosat yuritayotgani Markaziy Osiyo ruhini paydo qildi. Buning zamirida barchaga manfaatli adolatli kelishuvlar, odilona siyosat mujassam. Zero, “Tinchlik sababi ziddiyat yo‘qligida emas, balki adolat borligidadir”, degan edi amerikalik tinchlikparvar Martin Lyuter King.

Ta’kidlanganidek, global geosiyosiy jarayonlar tobora murakkab tus oldi. Ayrim davlatlar o‘rtasidagi raqobat, ishonchsizlik kuchaymoqda. Oqibatda ziddiyatlar kelib chiqyapti. Ikki davlat o‘rtasidagi nizo boshqa mamlakatlarning ham savdo, investitsiya, transport, energetika kabi muhim sohalardagi istagi. Boshqaruvda zo‘ravonlik ustuvor bo‘lgan jamiyatlar bunday vaziyatda o‘z manfaati uchun hech narsadan tap tortmaydi. Milliy egoizm birinchi o‘ringa chiqadi. Buning ildizida ma’rifatdan, insoniy fazilatlar, xususan, adolatparvarlikdan uzoqlik yotadi. Zamonaviy, global dunyoda masalaga egoizm bilan yondashuv kambag‘allikka qarshi kurash, oziq-ovqat, energetika xavfsizligi, suv va resurslardan foydalanish muammolarini kuchaytiradi. Mazkur vaziyatda qo‘li baland kelgan qaysidir jamiyat muayyan muddat farovon yashashi mumkin. Ammo masalaga to‘la yechim topa olmaydi. Chunki tabiatda odilona adolat bor. Uning o‘zi tosh-tarozini to‘g‘rilab qo‘yganiga tarix ko‘p bora guvoh bo‘lgan. Shu ma’noda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ilgari surayotgan taklif va tashabbuslar dunyo ahlini murakkab vaziyatga to‘g‘ri yechim sari undashdir.

Afsuski, bugun iqlim muammolari rivojlanayotgan davlatlar uchun aholi turmush sifatini oshirish va milliy taraqqiyot strategiyalarini ro‘yobga chiqarishda yangi to‘siqqa aylanmoqda. Osmonimiz ham, yerimiz ham yagona bo‘lgan makonda mazkur masalalarni yakka tartibda hal eta olmaymiz. Shu bois, Boku shahrida o‘tkazilgan COP29 konferensiyasida davlatimiz rahbari bir qancha tashabbuslarni ilgari surdi.

Avvalo, rivojlanayotgan mamlakatlarga iqlim xatarlarini aniqlash uchun yetakchi davlatlar va xalqaro institutlarning texnik ko‘magini kengaytirish dolzarb ekani aytildi. Buning uchun Iqlim tufayli yo‘qotish va zararlarni baholash bo‘yicha xalqaro markazni ta’sis etish berishda, kim uchundir himmat qildim emas, o‘zimizning muammoni hal qilyapmiz deb qaralishi kerak. Chunki har qanday kuch-qudrat o‘tkir ekologik muammo oldida ojiz bo‘lib qoladi. Yuqoridagi tashabbus shuni dunyo ahliga uqtirish, tabiatdagi inqirozlar qarshisida yagona kuch bo‘lib birlashishga chaqiriqdir.

Shu o‘rinda kichik mulohaza. Uyimizga yaqin joyda katta ariq o‘tgan edi. Unga ko‘prik uchun qo‘yilgan quvurning bir tomoni aylanma oqim sabab hovuzga o‘xshab qolgandi. Kimdir doim o‘sha yerga chiqindi tashlar, u hovuzda bir muddat aylanib, so‘ng oqib ketardi. Otam ta’kidlaydi. Uning mintaqamizga samarador bo‘lishi uchun hayotbaxsh tashabbuslar bildirildi. Masalan, bir avlod ko‘z o‘ngida Orol dengizi yo‘qolib bormoqda. Bugun yangi O‘zbekistondagi islohotlar tufayli Orolning qurigan tubi yashil qiyofaga kira boshladi. Bunday masalalarga yechim topish uchun BMT shafeligida Daryo ekotizimlarining butunligi va ekologik xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha majburiyatlar to‘g‘risidagi deklaratsiyani ishlab chiqish tarafdori ekanimiz aytildi.

Yana bir og‘riqli nuqta, katta shaharlarning havosi bilan bog‘liq. Istaymizmi-yo‘qmi, katta shaharlarda, ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarda iqlim muammosi ko‘proq kuzatiladi. Chunki bunday mamlakatlarda qurilish ishlari jadallashgan, ishlab chiqarish ham kengaya boshlagan bo‘ladi. Ayni paytda shu ishlar sabab chiqadigan zararli gazlarni kamaytirishga goh tajriba, ba’zida imkoniyat yetmaydi. Ana shunday vaziyatda iqlim o‘zgarishlaridan zarar ko‘rayotgan megapolis va shaharlar xalqaro darajadagi ko‘makka ehtiyoj sezadi. Navbatdagi tashabbusimiz aynan shunga qaratildi. Ya’ni barqaror rivojlanish bo‘yicha ilg‘or bilim va amaliyotlar transferi uchun Jahon iqlim poytaxtlari alyansini tashkil etish taklif etildi.

Darhaqiqat, hozir iqlim o‘zgarishlari megapolislarga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Jumladan, haroratning me’yordan oshishi, havo ifloslanishi, ayrim joylarda suv toshqini kuzatilmoqda. Jahon iqlim poytaxtlari alyansi mazkur muammolarni hal qilishda hamkorlik platformasi bo‘lib xizmat qiladi. Bu platforma barqaror rivojlanish, masalaga yechim topishda tajriba almashish uchun yaxshi maydon, degani.



ko‘p kuzatib, oxiri kim bu ishni qilayotganini topib, sen-menga borgani hamon esimda. Onam otamni murosaga chaqirsa, “Bu suvdan biz foydalanmasak, boshqalar-chi, ular ham o‘zimizday inson-ku!”, degan edi otam. Bugun xuddi o‘sha holat mamlakatlararo sodir bo‘lyapti. Bir mamlakat chegarasidan o‘tgan suv boshqalarga yaroqsiz holda yetib bormoqda. Buning sababi turlicha, ammo asosiysi mas’uliyatni his qilmaslik, deb o‘ylayman. Masalan, hozir ham transchegaraviy suv resurslarini boshqarish hamda ifloslanishning oldini olishga qaratilgan qator xalqaro standart va kelishuvlar mavjud. Ular suv resurslarini barqaror boshqarishda yagona yondashuvni ta’minlashga qaratilgan. Transchegaraviy ochiq suv oqimlari va xalqaro ko‘llarni muhofaza qilish hamda foydalanish bo‘yicha konvensiya shular jumlasidan.

Konvensiya transchegaraviy suv havzalari bo‘yicha hamkorlik va ular ifloslanishining oldini olish uchun huquqiy asos yaratgan. Davlatlarning transchegaraviy suvlar bilan bog‘liq faoliyatini muvofiqlashtiradi. Bioxilma-xillikni muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni talab etadi.

Xuddi shunday maqsadda qabul qilingan yana bir qancha xalqaro darajadagi hujjatlar bor. Lekin har bir mintaqa va davlat uchun ularning samaradorligi turlicha. Bu bir jihatdan xalqaro hamkorlik darajasiga bog‘liq. Ha, bunday standart va kelishuvlar turli darajada amalga tatbiq etilmoqda. Ammo muammoni barcha birdek his qilishi kerak. Shu bois, COP29 konferensiyasida O‘zbekiston tomoni transchegaraviy suv resurslari ifloslanishining oldini olish va barqaror bioxilma-xillikni saqlashda yagona yondashuv zarurligini



rivojlanishiga to‘siq bo‘ladi. Bunday vaziyatda oqilona yechim geosiyosiy raqobatni chetga surib, mafkuraviy qoliplardan xoli, global murosaga erishishdir. Buning uchun jahon hamjamiyati Hazrat Navoiy aytganidek, do‘stlikni ish, insoniy burch deb qabul qilishi kerak.

Endi ekologik muammolarni hal etish, xususan, COP29 doirasida ko‘rib chiqilgan masalalar, davlatimiz rahbari ilgari surgan tashabbuslar haqida to‘xtalsak. Tan olish kerak, iqlim o‘zgarishi jiddiy global tahdidga aylanib bormoqda. Tarixdan yaxshi ma’lum, tabiiy muvozanat buzilsa, jamiyatlar o‘rtasida ziddiyat ham kuchayib borgan. Sababi oddiy, tabiat resurslaridan ko‘proq foydalana olish taklif qilindi. Ushbu taklifning o‘ziyoq muammo barchaga birdek tegishli ekaniga urg‘u berishdir, nazarimda.

Sir emas, rivojlangan mamlakatlar barcha jabhada, xususan, zamonaviy texnologiyalar borasida ham ilg‘or. Hozirgi ekologik masalalarni aniq, ishonchli prognoz qilish, shunga mos yechimlar kerak. Buni zamonaviy texnologiyalarsiz, zararlarni baholay oladigan ilmiy markaz ko‘magisiz bajarib bo‘lmaydi. Mazkur tashabbusni amalga oshirish esa bevosita hamkorlikni, do‘stona munosabatni talab qiladi. Muammomiz bitta, yashash makonimiz yagona ekan, eng odilona yechim hamjihatlik. Rivojlanayotgan mamlakatlarga iqlim xatarlarini aniqlash uchun texnik ko‘mak

Yuqorida iqlim muammolarini hal qilishda hamkorlik muhim ekanini bot-bot takrorladik. Taklif etilayotgan platforma shu turdagi barcha xalqaro tashabbuslarni to‘ldiradi. COP29 kabi sammitlar doirasidagi muloqot va hamkorlikni kengaytiradi. Chunki ushbu platforma bevosita iqlim muammolarini shahar darajasida hal qilishga qaratilgan. Muhimi, uning doirasida ilg‘or bilim va tajribalar almashiladi.

Katta shaharlarda global isish doim yuqori bo‘lgan. Buning sabablarini birma-bir sanab, vaqtingizni olmoqchi emasmiz. Alyans shahar darajasida zararli gazlarni kamaytiradigan iqtisodiy yo‘nalish, “yashil” texnologiyalarni rivojlantirishni rag‘batlantiradi. Chunki platforma doirasida masalaga ilmiy asoslangan ilg‘or tajribalar taqdim etilishi nazarda tutilmoqda.

Uning birinchi forumini Toshkentda o‘tkazish taklifi ham bejiz emas. Markaziy Osiyo mintaqasida iqlim o‘zgarishi sezilarli darajada kuzatilmoqda. Bu global hamkorlikni talab qiladi. Forum sabab Toshkent iqlim va barqaror rivojlanish bo‘yicha yana bir xalqaro muloqot maydoniga aylanadi. Natijada iqlim masalalarida yetakchi davlatlar bilan hamkorlikni kuchaytirish imkoniyati tug‘iladi. Ha, bu taklif nafaqat iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq, balki global darajadagi hamkorlik va innovatsiyalarni jadallashtirishda ham katta ahamiyatga ega.

Biz faqat ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan taklif va tashabbuslar bilan cheklanib qolganimiz yo‘q. Oldimizga aniq maqsad va rejalar qo‘yganmiz. Masalan, mintaqada havo harorati jadal oshishiga yo‘l qo‘ymaslik va joriy yuz yillikda 1,5-2 gradus atrofida saqlab qolishdir. Buning uchun, ayniqsa, shaharlarda uglerod neytralligiga erishish kerak. Mazkur yo‘nalishda yurtimizda qator islohotlar qilinyapti. Jumladan, 2030-yilgacha havoga isiqxona gazlari chiqarilishini 35 foiz kamaytirmoqchimiz. Istiqbolda bu ko‘rsatkich yanada yaxshilanishi uchun ishlar jadal davom ettiriladi. Bunga o‘z-o‘zidan erishib bo‘lmaydi. Avvalo, zamonga mos ravishda “yashil” texnologiyani kengaytirish zarur.

Istiqbolda “yashil” energetika ulushini muttasil oshirib borishni maqsad qilganmiz. Buning uchun elektromobil va “yashil” vodorod klasterlari, quyosh va shamol generatsiya xablarini yaratyapmiz. Boshlagan ishlarimiz ilk natijalarini ko‘rsata boshlagani quvonarli. Xususan, 2024-yil boshidan beri yurtimizda quyosh va shamol elektr stansiyalari tomonidan 3 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarilgan. Bunday natijaga erishish uchun quyosh va shamol stansiyalari quvvati oshirildi. Hozir 7 ta viloyatda umumiy quvvati 2,4 gigavatt bo‘lgan 9 ta quyosh fotoelektr stansiyasi hamda bitta shamol elektr stansiyasi “yashil” energiya ishlab chiqaryapti.

Umuman, yurtimizda “yashil” energetikani jadal rivojlantirish bo‘yicha katta dastur qabul qilingan. Mamlakatimizda har yili quvvati 2 gigavattga yaqin quyosh va shamol elektr stansiyalari ishga tushirilmoqda. Joriy yil oxirigacha tarmoqqa qo‘shimcha 2,6 gigavatt qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarish quvvatlari va 300 megavattli energiya saqlash tizimlari ulanadi. Natijada yil yakuniga qadar hozir mavjud va yangi “yashil” stansiyalar evaziga yillik ishlab chiqarish 5 milliard 740 million kilovatt-soatga yetadi. Mazkur yo‘nalishdagi islohotlar izchil davom ettirilib, 2030-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 40 foizga yetkazish, shuningdek, 4,2 gigavattli energiya saqlash tizimlarini yaratish rejalashtirilgan.

Bunday yangilanishlar xalqaro hamkorlik darajasida yanada kengaymoqda. Xususan, COP29 sammiti doirasida O‘zbekiston, Qozog‘iston va Ozarbayjon o‘rtasida “yashil” energiyani rivojlantirish va uzatish sohasida strategik sheriklik to‘g‘risidagi bitim imzolandi. Energiya, umuman, bunday bitimlar haqida so‘z ketganida qancha foyda ko‘ramiz, qanday yutuqlarga erishamiz, deya hisob-kitobni boshlab yuboramiz. Gap “yashil” energiya haqida ketar ekan, foyda-zararni ekologik masalalar bilan bog‘lab o‘rganishimiz shart. Zero, qayta tiklanuvchi energiya kelajak kafolatidir. U kelgusi avlodlarga tabiatni aslidek yetkazish mas’uliyati ham. Shu ma’noda, davlatlarimiz orasida ushbu bitimning ekologik ahamiyati katta. Uning doirasida shamol va quyosh energiyasi uzatiladi. Ushbu qayta tiklanadigan va toza energiya manbasi iqlimga ta’sirni yumshatadi. Shu orqali tomonlar Parij bitimi va Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida iqlimni muhofaza qilish bo‘yicha qo‘shma sa’y-harakatlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Bu ham xalqaro darajadagi kelishuvlarni amalda ishlatishga intilishimizni ko‘rsatadi.

Loyiha iqtisodiy jihatdan ham samarador ekanini unutmaslik kerak. U orqali o‘n minglab yangi ish o‘rni ochiladi. Tabiiyki, energetika infratuzilmasi rivojlanadi, davlatlarimiz o‘rtasida texnologik va ishbilarmonlik aloqalari kengayadi. Bu o‘z-o‘zidan aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston suveren, ijtimoiy davlat sifatida aholiga yengillik yaratadigan bunday loyihalarni amalga oshirishga qat’iy harakat qiladi.

Shu yil noyabr oyining dastlabki kunlarida davlatimiz rahbari Navoiy viloyatiga tashrif buyurgan edi. Tashrif davomida davlatimiz rahbari “Ma’naviy buyuk xalq — iqtisodiy buyuk bo‘ladi. Ikkita tomir ustunimiz bor: iqtisod va ma’naviyat!”, dedi. Mazkur fikrning o‘zini alohida izohlash mumkin. Lo‘nda aytganda, bugun biz dunyo ahlini, ma’rifatga, ziddiyatlarga diplomatik yechim, ekologik masalalarni birdamlikda hal qilishga chaqiryapmiz. Uning amaliy ifodasini esa, albatta, o‘zimizdan boshlaganmiz. Masalan, “Yashil makon” dasturi doirasida ko‘kalamzor hududlarni keskin ko‘paytiryapmiz. Bu ezgu amal Turkiy davlatlar tashkiloti timsolida xalqaro ko‘lamga chiqmoqda.

Navoiy viloyatida “Yashil makon” loyihasi doirasida Navoiy bobomizga atab yangi bog‘lar, so‘lim xiyobonlar, yashil hududlar tashkil etiladigan bo‘ldi. Ekologik muammolar ziddiyatlarga sabab bo‘layotgan davrda bu bevosita Hazrat Navoiyning gumanizmga yo‘g‘rilgan ulug‘ insoniy g‘oyalarining amaliy ko‘rinishi bo‘ladi. Niyatimiz shu — dunyo Navoiy bobomiz orzusidagi ezgulik bog‘iga aylansin!





Ibratli umr saboqlari

Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. “Tarbiya qancha mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi”, deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo‘lishi uchun esa bu masalada bo‘shliq paydo bo‘lishiga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

O‘ZLIGINGIZDAN KECHMANG, ELDAN CHIQMANG!



Gulichehra DURDIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Bugungi kun yoshlariga havas qilsa arziydi. Ular til o‘rganyapti, ixtirolar qilyapti, fan cho‘qqilarini egallayapti, xalqaro tanlov va sport musobaqalarida g‘oliblik shohsupasiga chiqyapti, yangi asarlar yozyapti... Xullas, yoshlar har sohada faol, harakatchan.

Prezidentimiz kuni kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Bosh vazir nomzodini ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan majlisidagi nutqida yoshlarimiz ong-u tafakkurida milliy g‘urur bilan birga umumbashariy qadriyatlarga hurmat hissini kamol toptirish maqsadida yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish zarurligini qayd etdi.

Farzandlarimizni zamonaviy bilim va dunyoqarash, daromadli kasb egalari etib tarbiyalash, ularni ilm-fan, IT texnologiyalar, ma’naviyat, san’at va adabiyot, sport bilan oshno etish uchun hech narsani ayamay, bor kuch va imkoniyatlar safarbar etilishini ta’kidladi.

“Bugun faqat mana shunday ilg‘or yoshlarga, mana shunday jonkuyar ziyolilarga, vatan ravnaqi yo‘lida birlashgan xalqqa ega bo‘lgan davlatgina o‘z milliy manfaatlarini ta’minlashga erisha oladi. Bizning ikkita o‘q tomirimiz, ikkita tayanch ustunimiz bor: biri iqtisodiyot, biri ma’naviyatdir. Ma’naviy buyuk xalq iqtisodiy tomondan ham buyuk bo‘ladi”, dedi davlatimiz rahbari.

Xalqimiz azaldan yoshlar tarbiyasiga jiddiy e’tibor qaratgan. Bir bolaga yetti mahalla mas’ul ekanini yodda saqlagan. Xushaxloq, g‘ururli, Vatan va millat xizmatiga shay avlod tarbiyalashni o‘z burchi deb bilgan.

Bugungi e’tibor, imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalana olmayotgan yoshlarning borligi esa kishini o‘yga toldiradi. Ayrim yoshlarning ma’naviy olami qashshoqlashib borayotgani, muomala madaniyati yo‘qligi, odob-axloq haminqadarligi, G‘arb madaniyatiga ko‘r-ko‘rona taqlid qilib, uni o‘z trendiga aylantirayotgani ham ayni haqiqat. Yoxud ba’zi vaynerlarning nomaqbul videoroliklariga oshuftaligi, og‘zidan bodi kirib, shodi chiqayotgan so‘kong‘ich “tik-tok”chilarga ergashayotgani ham bor gap.

Yoshi ulug‘lar birovlar oldida og‘izga olishni uyat sanagan so‘kinishlar nafaqat yosh yigitlar, balki qizlar tomonidan kundalik odatga aylanib borayotgandek. Yarim-yalang‘och kiyimlari, bachkana qiliqlaridan hech xijolat chekmay, omma oldida o‘zini namoyish qilayotgan o‘zbek qizlarining bu ahvoliga ham odatiy holdek qaralyapti.

Xo‘sh, bugun ijtimoiy tarmoqning zararli va salbiy jihatlaridan yoshlarni uzoqlashtirish uchun nima qilish kerak? Ularning qalbida, ongu tafakkurida ijobiy hislarni, fazilatlarni shakllantirish, kuchaytirish uchun biz, kattalar qanday yo‘l tutishimiz lozim? Millatimizga, o‘zbekona qadriyatlarimizga mos va xos bo‘lmagan illatlarni yoshlarning fikru o‘yidan yulqib tashlash, tozalash uchun-chi?

Ushbu savollarimizga qisman bo‘lsa-da javob topish maqsadida yoshi ulug‘, ko‘pni ko‘rgan faxriylarimiz, O‘zbekiston Qahramonlari bilan suhbatlashdik, ularning fikr, maslahat va tavsiyalarini yozib oldik.

Har bir yosh mening farzandim — o‘g‘lim va qizim

Muhabbat SHAROPOVA,
O‘zbekiston Qahramoni:



— Yoshlar — O‘zbekiston bunyodkorlari, bitmas-tuganmas boyliklari. Shonli tarixga ega ajdodlarimiz bilan qanchalik faxrlansak, hozirgi yoshlar salohiyati, vatanparvarligi bilan yangi O‘zbekistonimizning shon-shavkatini davom ettiramiz. Men oddiygina bir ustoz sifatida yosh avlodga havas ko‘zi bilan qarayman, ularning iste’dodiga tan beraman.

G‘am bilan shodlik, yaxshilik bilan yomonlik birga yuradi. Demak, qalbimizga faxr tuyg‘usini berib, bizni quvontiradigan, jonimizga ozor berib uyaltiradigan ham yoshlardir. Ba’zi yoshlar oltinga teng vaqtini behuda sarflab, soatlab telefon titkilab, keraksiz saytlarga kirib, faqatgina ma’naviy dunyosini sayozlashtirmoqda.

Kitob o‘qish orqali inson o‘z ma’naviyatini yuksaltiradi, miyasini charxlaydi. Internet hech qachon kitobning, gazeta va jurnallarning o‘rnini bosa olmaydi. Hamma ko‘rgulik kitob o‘qimaslikdan kelib chiqadi. Kitob o‘qish, avvalo, tarbiyani mustahkamlaydi, odamni yaxshilikka chorlaydi, qalb olamini boyitadi.

Mening O‘zbekiston Qahramoni sifatida emas, oddiy va mehribon buvi sifatida yoshlarga aytar gaplarim bor: aziz o‘g‘il-qizlarim, shuni yaxshi anglab yetingki, bizning jannatmonand go‘zal yurtimizga, osoyishtaligimizga hasad qiladigan g‘animlarimiz ko‘p. Ular g‘arazli niyatini internet tarmoqlaridagi turli yot g‘oyalar orqali singdirishga, ongingizni zaharlashga urinishi tabiiy. Kerak bo‘lsa, payt poylaydi. Shuning uchun ham biz, keksa avlod sizni avaylab, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishni insoniylik burchimiz deb bilamiz. Sizni g‘animdan asramasak, ularning domiga ilinishingiz tayin va qanchangiz o‘sha g‘animlar tashlagan to‘rda haliyam o‘ralashib, undan chiqa olmay yuribsiz.

Aslida, siz o‘z urf-odatlarini e’zozlagan, oriyat va nomusni boshida tutgan xalqning zurriyotisiz, tomiringizda ulug‘ ajdodlar qoni oqayotir. G‘animlarning yot g‘oyalarini shuuringizga singdirishga, o‘zbekona an’analarimizni oyoqosti qilishga, tilimiz sofligini yo‘qotishga, fikrlash doirangizni xasta qilib, ma’naviyatingizni yaralashiga yo‘l qo‘ymang va ularning domiga ilinib qolmang.

Ijtimoiy tarmoqda gullab-yashnashingiz yaxshidir, ammo “Oila qilmay, 5-6 yil bir-birini sinab, birga yashash ham mumkin”, degan ahmoqona fikrlarni ilgari surayotgan oramizdagi orsizlardan uzoqroq bo‘ling. Egniga o‘zbek adrasini kiyib olib, bu niqob ostida, aslida, G‘arb madaniyatini ilgari surayotgan ichimizdagi dushmanlarimizdan ogoh bo‘ling, ularni o‘zingizdan yiroq tuting! Ko‘pni ko‘rgan ayol, hayotini yoshlar tarbiyasiga bag‘ishlagan pedagog sifatida haddim sig‘ib, sizlarga ko‘nglimni to‘kib soldim. So‘zlarimdan ranjimang. Axir o‘zbekman degan, shu mamlakatda yashayotgan har bir yosh mening farzandim — o‘g‘lim va qizim.

TO‘KIS SHAROITLAR BIR PAYTLAR ORZU BO‘LGAN

Sodiqjon TURDIYEV,
O‘zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash “Nuroniy” jamg‘armasi respublika boshqaruvi raisi, O‘zbekiston Qahramoni:



— Bugungi kunda yoshlar tarbiyasiga, iqtidori va salohiyatini yuzaga chiqarishga alohida e’tibor qaratilmoqda. So‘nggi 8 yil ichida yoshlarga doir ko‘plab hujjatlar imzolandi.

Uzoqqa bormaylik, Prezidentimiz Oliy Majlis Qonunchilik palatasining saylovdan keyingi birinchi majlisidagi nutqida deputatlarning 11 nafari 35 yoshgacha, ilk bor yoshlar parlamentining 2 vakili Qonunchilik palatasi deputati etib saylanganini ta’kidladi. Bu ma’lumotning o‘ziyoq mamlakatimizda yoshlar siyosatining ustuvor ahamiyat kasb etayotganidan darakdir. O‘z ustida ishlayotgan, intilayotgan yigit-qizlar davlatimiz siyosatida ham muhim o‘ringa ega bo‘layotir.

Imtiyoz turi va soni yildan yilga ortib borayotgani kelajak avlodning baxtli va saodatli hayotiga qo‘yilgan mustahkam poydevordir. Ochig‘ini aytganda, bildirilayotgan ishonch va yaratilayotgan imkoniyatlar tufayli yoshlar O‘zbekiston ravnaqiga munosib hissa qo‘shmoqda. Zamonaviy bilimlarni, axborot texnologiyalarini o‘rganyapti. Ularning xalqaro maydonlarda o‘z iqtidorini namoyish etib, ulkan natijalarni qo‘lga kiritayotgani esa barchamizni birdek quvontirmoqda. Fan olimpiadalarida jahondagi eng salohiyatli yoshlar bilan munosib bellashib, ularni dog‘da qoldirayotgan ham bizning farzandlarimiz. Yurtimiz sharafini ulug‘layotgan yoshlarimiz bilan har qancha g‘ururlansak arziydi.

Ammo yoshlar ta’lim-tarbiyasida qiladigan ishlarimiz juda ko‘p. Oliy ta’lim muassasalarida, maktablarda ayrim talaba va o‘quvchilar o‘qituvchilariga bepisand muomala qilishi, bilim olishga e’tiborsizligi, o‘yinqaroqligi, to‘qlikka sho‘xlik qilayotgani achinarli. Vaqtida bilim olmay, kasb-hunar o‘rganmay voyaga yetgan, oila qurib, farzandli bo‘lgan, biroq ota-onalik mas’uliyatini to‘la anglamayotgan yoshlarimiz ham anchagina.

Shu sababli yoshlar tarbiyasi bugunning eng dolzarb vazifasi etib belgilandi. Yurtimizda kasb-hunarsiz yoshlarga hunar o‘rgatish, hayotda o‘z yo‘lini topa olmay yurganlarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish borasida tizimli ishlar qilinmoqda. Qanchadan-qancha o‘g‘il-qizlarga yer berildi, tadbirkorlik qilishi uchun imtiyozli kreditlar ajratildi.

Bir so‘z bilan aytganda, yoshlarning to‘kin yashashi, puxta bilim olishi, iqtidorini yuzaga chiqarishi uchun hamma imkoniyatlar ishga solinmoqda. Shuncha to‘kis sharoitlarga qaramay, qing‘ir yo‘llarga kirayotgan, jinoyat ko‘chasiga mo‘ralayotgan, ijtimoiy tarmoqning salbiy tomonlarini o‘zlashtirayotgan, G‘arb madaniyatiga ko‘r-ko‘rona taqlid qilayotganlar ham, ming afsuski, o‘zimizning yosh avlod.

Yoshligimizda bugungi sharoitlarning o‘ndan biri ham yo‘q edi. Ammo qo‘limizdan kitob tushmasdi. Tinmay o‘qirdik, mushtdayligimizdan dalalarda ishlardik, o‘zimizdan kattalarga tik qarashga istihola qilardik, uyalardik. Hozir yoshlar uchun shunchalar sharoit yaratilganiga qaramay, ular buning qadriga yetmayapti. Hatto noliyotgan, noshukurlik qilayotganlari ham yetarlicha. Ota-onasiga, yaqinlariga tap tortmay qo‘l ko‘taryapti. Ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan ayrim voqealarni ko‘rib, yoqa ushlaysan kishi. “Gap egasini topadi” deganlaridek, bu e’tirozlarim ayrim yoshlargagina tegishli.

Obod va ozod o‘lkamizning aziz dilbandlari! Sizlar buyuk allomalarni ulg‘aytirgan tuproqda kamolga yetyapsiz. Yurtning ishonchli ertasi, or-nomusi bo‘lasiz. Yoshi ulug‘ bir ota sifatida nasihat qilmoqchiman: o‘qing, o‘rganing, lekin o‘zligingizdan kechmang, eldan chiqmang. Bugungi g‘ayrat-shijoatingiz, intilishingiz kun kelib jamiyatda o‘z aksini topsin. Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ezgu tashabbusning tub zamirida ham siz, yoshlarga katta ishonch mujassam. Bugun shu g‘amxo‘rlik va e’tiborning, tinchlik va osoyishtalikning qadriga yetib, vaqtdan unumli foydalansangiz, kelajakda buyuk allomalarimizga munosib izdosh bo‘lishingiz tayin!



Hech kim tashqaridan kelib, ta’lim-tarbiya ishlarini tartibga solib bermaydi



Shavkat AYUPOV,
O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi, O‘zbekiston Qahramoni:

— Prezidentimiz joriy yilning oktabr oyida Navoiy viloyatiga tashrifi chog‘ida: “Mening eng katta tashvishim, maqsadim — yoshlar tarbiyasi. Biz olgan marralar uchun bilimli avlod kerak. Buning uchun hamma sharoitlarni yaratishga harakat qilyapmiz. Sizlar esa vaqtning qadriga yetib, bor imkoniyatni ishga solib, o‘qishingiz kerak. Olgan bilimingiz, o‘rgangan kasb-hunaringiz kelajakda sizlarga qanot bo‘ladi”, degan fikrni kuyinchaklik bilan ta’kidladi. Bu bejiz emas.

Yuksak ma’naviyatli, sog‘lom, bilimli, madaniyatli yoshlar mamlakat taraqqiyoti va kelajagini belgilab beruvchi hamda jamiyatda ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda harakatlantiruvchi asosiy kuchlardan sanaladi. Mamlakatimizdagi ko‘plab maktablarga uchrashuvlarga boramiz, o‘quvchilar bilan dildan suhbatlashamiz. Suhbatlarda har safar ularga: “Barcha fanlarni yaxshi o‘zlashtiring, ayniqsa, matematika, informatika va chet tillarni o‘qing, o‘rganing. Yuqori sinflarga o‘tganingizda esa o‘z qobiliyatingizga qarab, kelajakda kim bo‘lishingizni qat’iy maqsad qilib oling”, deya uqtiraman. Yurtimizda ta’lim, fan sohalariga e’tibor so‘nggi yillarda jonlandi.

Bugungi yoshlar qo‘lga kiritayotgan yutuqlar ta’limga e’tiborning mevasi. Bu — Uchinchi Renessans poydevori. Bugun zamon o‘zgarib, ota-onalar farzandlariga bilim berish kerakligini yaxshi tushundi. Nafaqat o‘qituvchi, ustozlar, balki har bir ota-ona o‘z farzandini kichikligidanoq ilm olamiga olib kirsa, ko‘chada vaqtini behuda sarflamaslikka o‘rgatsa, o‘ylaymanki, yosh avlod buni tez anglab yetadi.

Hech kim tashqaridan kelib, ta’lim-tarbiya ishlarini tartibga solib bermaydi. Bugungi tezkor asrda hayot sinovlari nafaqat yoshlarni, balki har bir fuqaroni hushyor, ziyrak va dono bo‘lishga undaydi. Dunyoda kechayotgan beqaror siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy holatlar har birimizdan yoshlar kelajagiga befarq bo‘lmaslikni qat’iy talab etmoqda. Yoshlar orasida boshboshdoqliklarning tobora avj olishi esa bor narsa. Buning oldini olish uchun yoshlarni kitob o‘qish, o‘zi qiziqqan sohaga yo‘naltirish lozim. Ilm-fanga e’tibor kuchayib boraversa, yoshlar ma’naviyati oldi-qochdi yolg‘onlar bilan to‘ldirilmasa, kelajak avlodning istiqboli yorqin bo‘ladi, albatta.

TARBIYA, TARBIYA va FAQAT TARBIYA

O‘z ilmi, iqtidori, ixtirosi, kuch va shijoati bilan dunyoga tanilgan yoshlarimiz borligi yutug‘imiz, kelajagimiz ta’minoti. Agar yosh yigit-qizlar o‘z oldiga maqsad qo‘yib, turli nag‘malarga uchmay, obdan fikr yuritib, bugungi imkoniyatlar qadriga yetib, yaxshi o‘qisa, mehnatdan qochmasa, o‘z kelajagini o‘zi qura oladi, mahalla-ko‘yga, yurtga nafi tegadi. Kelajakda ko‘pning duosini olib, xotirjam va farovon yashaydi.

Agar o‘z ongini oldi-qochdi yolg‘onlar bilan to‘ldirsa, kunim o‘tsa bo‘ldi deb yashamoqchi bo‘lsa, o‘z oyog‘iga bolta urgan bo‘ladi. Shunday ekan, har bir yosh ota-onasi, ustozlari, yoshi ulug‘ kishilar pand-nasihatlariga amal qilishi lozim. Aslida, nuroniylarimiz televizorni yoqib, oyoqlarini cho‘zib, divanga yonboshlab, hech bir yoshga hech nima demay, o‘z xotirjamligini o‘ylab yashashi ham mumkin. Biroq azaldan vijdoni uyg‘oq, oriyati kuchli, birovning tashvishi va g‘amini o‘ziniki hisoblagan keksa avlod vakillari yoshlarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishni o‘z burchi deb bilgan va shunga amal qilgan. Maslahat va o‘gitlarga quloq tutish esa har kimning vijdoniga bog‘liq.

Maqolamizni davlatimiz rahbarining quyidagi fikri bilan yakunlashni lozim topdik: “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala bu — yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim — yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 2574.
41157 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Azizbek Yusupov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘zA yakuni — 01:11 Topshirildi — 01:50

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05